

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

Fakultet Bank moliya xizmatlari fakulteti

Kafedra Buxgalteriya hisobi va audit

«Himoyaga tavsiya etildi »
Kafedra mudiri ,
prof. K.B. Urazov _____
2017yil «_»_____

Bayonnomma №__ 2017 yil ____

5230900 –«Buxgalteriya hisobi va audit »

ta'lif yo'nalishi BH-313 guruh talabasi

Xurramov Zafar Tursun O'g'lining
**«QURILISH TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA
AUDITI»**
(«**QUYI TEGANA QURUVCHI XUSUSIY KORXONASI**» misolida)
mavzusidagi

**BITIRUV MALAKA VIY
ISHI**

Ilmiy rahbar: ass. Muxammadiyev Z

SAMARQAND -2017

MUNDARIJASI

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINING KONSEPTUAL ASOSLARI	
1.1. Asosiy vositalarning vositalarning tavsifi va tasnifi hamda tarkibiy tuzilishi-ning hisobi	7
1.2. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatilishining hisobi va auditni	17
1.3. Quriliish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi va auditining maqsad vazifalari va asosiy vositalar meyoriy huquqiy asoslari.....	24
II BOB. «QUYI TEGANA QURUVCHI» XUSUSIY KORXONASIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI	
2.1. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarning umumiy tarkibiy tuzilishi.....	33
2.2. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarning hisobini yuritilishi va xujjatlashtirish tartibi.....	39
2.3. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarni tamirlash xarajatlari va ijara munosobatlarini yoritilishi.....	50
III BOB. «QUYI TEGANA QURUVCHI» XUSUSIY KORXONASIDA ASOSIY VOSITALAR AUDITINING METADIALOGIK TARTIBI	
3.1.«Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalar auditini rejasи va dasturini tuzish.....	55
3.2.«Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarni auditorlik tekshuruvi natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibi.....	59
3.3.«Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarga hisoblangan eskirishi auditining tahlili va auditda tahlil usullaridan foydalanish.....	62
3.4. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida hayot faoliyati xavfsizligi...68	
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	83
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	88
ILOVALAR.....	90

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlari safiga qurulish xo'jaliklarini qo'shmasdan, alohida takidlab o'tmasdan iloj yo'q. Chunonchi iqtisodiyotimiz rivojlanib brogan sari, aholimiz, xalqimiz yashash sharoiti yaxshilangan sari etiborini yangi binolar qurushga, talabga javob bera oladigan hartamonlama mustahkam uylarda yashashga intilmoqda. Shu sababli ham bugungi kunda mamlakatimizda qurulish sohasiga alohida etibor qaratilmoqda.

Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasida 2016-yil yakunlari bo'yicha mamlakatimizda qurulish pudrat ishlarini 12.5 %ga o'sganligini takidlab o'tdi¹. Bundan tashqari Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev 3-fevral kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi va quyidagi fikrlarni berib o'tdi. Prezidentimiz Sergeli tumanida bunyod etilayotgan zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar qurulishini ko'zdan kechirdi. Mustaqilligimiz memori I.A.Karimov tashabbusi bilan aksariyat shaharlarimiz bosh reja asosida qayta quruldi. Toshkent, Nukus, Buxoro, Andijon va boshqa shaharlarning bugungi jamoli buning yaqqol tasdig'idir deya takidlab o'tdi Preziderntimiz. Sergeli tumanida 2016-2017-yillar rejasiga asosan, 4284 xonadondan iborat 102 ta zamonaviy ko'p qavatli uy-joy qurish ishlari amalga oshirilayotganligini va uylar oilalarga ipoteka krediti orqali berilishini alohida takidlab o'tdi.

Prizdentimiz SH.M.Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliши bo'yicha harakatlar strategiyasida ham aniq yo'naliшlarni takidlab o'tgan. Xususan, arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev. Sh. M ning mamlakatimizni 2016-yildaijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilgamo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasi.

sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizasiya qilish: aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash.²

Tadqiqot mavzusining dolzarbliyi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha korxonalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishga intiladilar. Bu ularga kam xarajat evaziga ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish, ularni sotish orqali ko‘proq foydaga ega bo‘lish imkonini beradi. Ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy salohiyati tarkibida tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib, moddiy resurslar, xususan asosiy vositalar muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu korxonalar xo‘jalik faoliyatining natijasi ko‘p jihatdan asosiy vositalarning mavjudligi va ulardan foydalanish samaradorligiga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchi Prezidentimiz aytganidek, “Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘li xalqimiz ko‘zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo‘lgan, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Buni hayotimizning o‘zi bugun isbotlab bermoqda”³. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va modernizatsiya qilinishi bilan korxonalarda yangi nomdagi, yangi shakldagi va o‘ziga xos asosiy vositalar vujudga kelmoqda. Bu esa, ularning hisobini uzluksiz takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltiradi. Yuqoridaq muammolarni ilmiy amaliy va nazariy jixatdan xaletish zarurligi kurs ishi mavzusini va tadqiqotlar yunalishini belgilashga asos bo‘ldi.

² Prizident SH.M.Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi IV-bo‘lim 4.3 band.

³Karimov I.A. “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug’ kelajagimizning asosiy omilidir”. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagisi ma’ruza.2013 yil 7 dekabr. – Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2013 yil, 5-bet.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va modernizatsiya qilinishi bilan korxonalarda yangi nomdagi, yangi shakldagi va o‘ziga xos asosiy vositalar vujudga kelmoqda. Bu esa, ularning hisobini uzluksiz takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu Bituruv malakaviy ish «QUYI TEGANA QURUVCHI» xususiy korxonasi misolida yozilgan bo‘lib, uni bat afsil yoritishda O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30 avgustda qabul qilingan va 2016-yil 13-aprelda o‘zgartirish va qo’shimchalar kiritilgan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni , Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS), Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) hamda asosiy vositalarning mazmuni, xo‘jalik faoliyatidagi ahamiyati, turlari, ularning audit uslubiyotini mamlakatimiz soxa olimlari K.B.Urazov, R.Dusmuratov, R.A.Abdullaev, S.N.Tashnazarov,E.A.Akramov, O.M.Jumanov, N.YU.Juraev, M.M.Tulaxujaeva, B.X.Xasanov va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida yoritib o’tishgan.

Bituruv malakaviy ishning maqsadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy vositalarning auditorlik tekshiruvidan o’tkazishning zarurligini va „Quyi Tegana quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalarni hisobini yuritilishini va auditorlik tekshiruvi amalga oshirilganligini, amalga oshirilmagan taqdirda qisqacha auditorlik tekshiruvini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib kurs ishi oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- Asosiy vositalarning auditining nazariy asoslarini ochib berish;
- Asosiy vositalarning tavsifi va tasnifi hamda tarkibiy tuzilishining hisobini o’rganish.
- Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatilishining auditini ko’rib chiqish.
- Asosiy vositalarga eskirish hisoblash hamda qayta baholash usullarini tekshirish.
- „Quyi Tegana quruvchi”xususiy korxonasida asosiy vositalarning umumiy tarkibiy tuzilishini o’rganib chiqish.

- „Quyi Tegana quruvchi”xususiy korxonasida asosiy vositalarning mavjudligi va saqlanishini tekshirish.
- „Quyi Tegana quruvchi”xususiy korxonasida asosiy vositalarni tamirlash xarajatlari va ijara munosobatlarini to’g’ri amalga oshirilganligini tekshirish.

Bituruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy vositalarning mazmuni, turlari va korxonalar xo‘jalik faoliyatidagi ahamiyatini ochib berish;
- “Quyi Tegana quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalar auditining maqsadi va vazifalarini belgilash;
- asosiy vositalarining holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish;
- asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish va hisobga olish tartibini ko’rib o’tish;
- asosiy vositalar auditini tashkil etish va o’tkazish ketmaketligini ishlab chiqish;

Tadqiqotning obekti Bituruv malakaviy ishning obyekti bo’lib “Quyi Tegana Quruvchi”xususiy korxonasining xo‘jalik faoliyati hisoblanadi.

Ishning nazariy va uslubiy asoslari bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik subektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishga doir farmonlari, asarlari va ko’rsatmalari hisoblanadi. Bundan tashqari ishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, MoliyaVazirligi va Davlat Soliqqumitasining Nizom va yuriqnomalari, shuningdek respublikamiz va xorijlik olimlarning buxgalteriya hisobi, audit, iqtisodiy taxlil va hisob bo‘yicha chop etilgan adabiyotlardan, ilmiy maqolalar va ishlardan keng foydalanildi.

Ishning uslubiy asosi bo‘lib ilmiy bilishning dialektik uslubi hisoblanadi. Bituruv malakaviy ishning bajarishda taqqoslash, guruxlash, umumlashtirish, va iqtisodiy matematik usullardan, hamda moliya statistikasining keng tarqalgan usullaridan keng foydalanildi.

Bituruv malakaviy ish krish qismi, 3 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat.

I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA

ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA AUDITINING KONSEPTUAL

ASOSLARI

1.1. Asosiy vositalarning vositalarning tavsifi va tasnifi hamda tarkibiy tuzilishining hisobi

O’zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonunning 4-moddasida «Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog’liq xo’jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob’ektlaridir»- deb ko’rsatib o’til-gan.

Buxgalteriya hisobini ob’ektlaridan biri hisoblanuvchi aktivlarni korxona faoliyatida ishlatish yoki foydalanish muddati nuqtai nazardan ikkita yirik guruhga ajratish mumkin:

- bir yildan kam muddat mobaynida foydalilaniladigan aktivlar;
- bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalilaniladigan aktivlar.

Bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalilaniladigan aktivlarni «uzoq muddatli aktivlar» deb aytildi va ular tarkibiga moddiy va nomoddiy aktivlar kiradi.

Muddatli moddiy aktivlar tarkibida asosiy vositalar katta salmoqqa ega bo’lib, xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida katta rol o’ynaydilar. O’zbekiston Respublikasining 5-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standartining 7-bandida asosiy vositalarga quyidagicha ta’rif berilgan: «**Asosiy vositalar** – moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida uzoq (bir yildan ortiq) muddat davomida foydalilaniladigan hamda ijaraga berish uchun mo’ljallangan moddiy aktivlardir»⁴.

Berilgan ta’rifga ko’ra, asosiy vositalarning asosiy xususiyatlari - korxonalar faoliyatida uzoq muddat mobaynida foydalanishi yoki ijaraga be-

⁴5-son “Buxgalteriya hisobi milliy standarti”

rilishidir. Shuningdek, ularning yana boshqa xususiyatlari – xizmat muddati mobaynida o’zini natural-buyum shaklini saqlab qolishi va o’z qiymatini sekin-asta eskirish tariqasida chiqarib borishidir.

Asosiy vositalar tarkibi, xizmat muddati, qiymati va boshqa bir qator jihatlari bo'yicha turlicha bo'lishi ularni hisobga olishda ham bir qator muammolarni yuzaga keltiradi.

Asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati davomida davriy eskirish hisoblab boriladi. Bir qator asosiy vositalarning barcha qiymati eskirish yo'li bilan hisobdan chiqarib borilsa, boshqa bir turdag'i asosiy vositalarning tugatish qiymatidan qolgan qismi eskirish tariqasida hisobdan chiqarib boriladi.

Asosiy vositalarni hisobga olishda e'tibor beriladigan yana bir masala bu ularning qaysi birlarini eskirish summasini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tarkibiga kiritish yo'li bilan qoplanadi-yu, qaysi birlarini qiymati foyda hisobidan koplanishini aniqlab olishdir. Bu masalalar o'z navbatida asosiy vositalarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'lik xarajatlarni hisobga olishni to'g'ri aniqlash bilan ham bog'liq.

Demak, asosiy vositalarni hisobga olishda yuqoridagi aytib o'tilgan masalalar bilan bog'liq quyidagi ikkita muammoni hal qilib olish lozim:

- joriy hisobot davrida ular qiymatining qanday qismi hisobdan chiqariladi;
- ularning balansda ko'rsatilgan qiymatini qoplanish summasi qanday hisoblanadi.

Bu muammolarni hal qilish , albatta, bir qator savollarga to'g'ri javob topishni taqozo qiladi. Bular jumlasiga asosan quyidagilarni kiritish mumkin:

- Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini qanday aniqlash kerak?
- Asosiy vositalarning bir qismini xarajatlarga qanday olib borish kerak?

- Asosiy vositalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar hisobini qanday olib borish kerak?
- Hisobda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning chiqib ketishini qanday ifodalash kerak?

Kutubxona fondlari, qishloq xo'jalik mashinalari va qurollari qiymatidan qat'iy nazar, asosiy vositalarga qo'shiladi.

BHMS № 5 ga muvofiq (6-band) moddiy aktivlarni asosiy vositalar sifatida tan olish uchun ular yuqoridagi ta'rifda keltirilgan mezonlardan tashqari yana qo'yidagi shartlarga ham javob berishi lozim:

- Xizmat muddati davrida korxonaga daromad keltirish kafilligini mavjudligi.
- Qiymatini aniq belgilashni mumkinligi.

Moddiy aktivlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda ularni foydali xizmat muddatini belgilash muhim rol o'ynaydi.

Foydali xizmat muddati – deganda asosiy vositaning korxona tomonidan belgilangan foydalanish muddati tushuniladi. Bu muddat yillarda yoki oylarda ifodalanib, uning Foydali xizmat muddati davomida asosiy vositalar o'zlarining qiymatini to'liq qoplashlari va korxonaga qo'shimcha daromad keltirishlari lozim. Foydali xizmat muddati, odatda, asosiy vositaning texnik hujjatlarida ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday hujjatlar mavjud bo'lmasganda asosiy vositalarning foydali xizmat muddati qabul qilish komissiyasi tomonidan yoki korxona rahbari buyrug'i bilan tasdiqlangan hisob siyosatida aniq belgilanishi kerak.

Asosiy vositalar korxonalarining moddiy texnika bazasini tashkil etuvchi mehnat qurollari va vositalarini o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi:

1.Binolar – sex, ombor, laboratoriya, idora, garaj, o't o'chirish deposi va shu kabi mehnat sharoitini yaratib beruvchi, tovar-moddiy boyliklar butligini ta'minlovchi ob'ektlar. Binolar tarkibiga ularni normal ekspluatatsiya qilish

uchun zarur bo‘lgan barcha kommunikatsiyalar, ya’ni isitish, ventilyatsiya, suv va gaz ta’minoti, lift, yong‘inga qarshi va signalizatsiya qurilmalari, telefon aloqasi simlari tizimlari ham kiritiladi.

2.Inshoatlar – ochiq ayvonlar, devorlar, suv minoralari, temir yo‘l shahobchalari, nasos stansiyalar, kanallar, suv havzalari, asfaltlangan yo‘llar va yo‘lkalar.

3.Uzatish qurilmalari – elektr liniyalar, gaz, suv, bug‘ o‘tqazuvchi quvurlar va boshqalar.

4.Mashina va uskunalar – issiqlik va elektr energiyasini ishlab hiqaruvchi generatorlar, dvigatel va transformatorlar, stanoklar, issiqlik pechlari, tikuv, yig‘uv, dazmollash, saralash mashinalari, kranlar, compressorlar, o‘lchov tarozilar.

5.Hisoblash texnikasi – kompyuterlar va ularga o‘rnatiladigan periferiya qurilmalari (printer kaner , modem va boshqalar).

6.Transport vositalari – yuk va odam tashuvchi avtomashinalar, vagonlar, parovozlar, teplovozlar, paroxodlar, tramvaylar, trolleybuslar, avtobuslar, pritseplar, samolet va vertoletlar, shuningdek magistral truboprovodlar.

7.Uskunalar – presslovchi, qisuvchi va boshka texnologik funksiyalarni bajaruvchi asbob- uskunalar.

8.Ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari- ish stollari, dastgohlar, bakkalar, sandiqlar va boshqalar.

9.Ofis mebeli va jihozlari – shkaflar, stol va stullar komplekti, doskalar, seyflar, yozuv mashinkalari, faks, nusxa ko‘chirish apparatlari, uyali aloqa vositalari va boshqalar

10.Ishchi va nasldor hayvonlar – otlar, tuyalar, ho‘kizlar, sigirlar, bo‘qalar, qo‘ylar, echkilar, cho‘chqalar va boshqa ishchi sifatida ishlatiladigan va nasl beradigan hayvonlar.

11.Ko‘p yillik o‘simliklar – bog‘lar, o‘rmonlar va boshqalar

12.Kutubxona fondi – badiiy-adabiy, texnik , iqtisodiy va boshqa turdagি adabiyotlar (kitoblar).

13.Yerni va boshqa asosiy vositalarni obodonlashtirishga sarflangan mablag’lar – yer uchastkalarini kadastrini tuzish, shudgorlash, yerni yuvish, ko‘kalamzorlashtirish, reshyotkalar o‘rnatish, suv havza va omborlarini tozalash va boshka ishlarga sarflangan kapital quyilmalar

14.Boshqalar - yuqoridagi guruxlarga kirmay qolgan asosiy vositalar – muzey va zoopark eksponatlari, lizingga olingan asosiy vositalarga qilingan kapital sarflar, turli namunalar va boshqalar.

Qabul qilingan tartibga muvofiq ayrim mehnat qurollari va vositalari asosiy vositalarga kiritilmaydi, jumladan :

- Xizmat muddati 1 yildan kam bo‘lgan mehnat qurollari va vositalari ularning qiymatidan qat’iy nazar;
- Yosh mollar, asalari uyalari, tajribadagi mollar;
- Mahsus kiyimlar, poyafzal, ko‘rpa– yostiqlar qiymatidan qat’iy nazar (mehmonxonalar bundan mustasno);
- Munshiyxona buyumlari (kalkulyatorlar, stol usti priborlari va boshqalar)
- Ko‘chatxonalarda ekish uchun o‘sтирilayotgan ko‘chatlar;
- Baliq ovlash qurollari xizmat muddati va qiymatidan qat’iy nazar.

Asosiy vositalarni tasniflash. Korxona va tashkilotlarning asosiy vositalarini turli belgilari bo‘yicha tasniflash mumkin

Ishlab chiqarishda qatnashishiga ko‘ra korxonalarning asosiy vositalari ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga bevosita ishlab chiqarishga doir bo‘lgan moddiy aktivlar, masalan sexlarning binolari, inshootlar, stanoklar, jihozlar, transport vositalari, ishchi hayvonlar va boshqalar kiradi.

Noishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalarga boshqaruv apparatiga doir, shuningdek korxonaning ijtimoiy-madaniy, maishiy, sog'liqni saqlash, kommunal maqsadlarda foydalaniladigan moddiy aktivlari kiradi.

Soliqga munosabatiga ko‘ra asosiy vositalar mol-mulk solig‘iga tortilla-digan va tortilmaydigan guruhlarga bo‘linadi. Soliq Kodeksining 92-moddasiga muvofiq qo‘yidagi turdagি korxona va tashkilotlarning asosiy vositalar mol-mulk solig‘iga tortilmaydi.

1-jadval

Mol- mulk solig‘idan ozod qilingan korxona va tashkilotlar

Nº	Korxonalarning turlari
1	Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulk bundan mustasno).
2	Halk ta’limi va madaniyat muassasalari.
3	Uy-joy communal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviylar ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi.
4	Qishloq xo‘jalik va chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi, ularning seleksiyasi va saqlashi, baliq yetishtiruvchi, ovlash va uni qayta ishslash korxonalar.
5	Ustav kapitalida chetel sarmoyasining ulushi kamida 500 ming AQSH dollarini tashkil etadigan yuridik shaxslar.
6	Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tashkil etilgan sanadan boshlab dastlabki foya olguniga qadar, lekinda ro‘yx atdan o‘tgan sanadan boshlab uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga (imtiyozli davrdan keyin bir yil o‘tguniga qadar bu korxonalar yopilsa, u holda ular soliq summasini butun faoliyati davri uchun to‘liq miqdorda to‘laydilar).
7	«Sog‘lom avlod uchun» Xalqaro hayriya jamg‘armasi, Qizil Yarim Oy jamiyati, «Nuroniy» jamg‘armasi tasarrufidagi korxonalar (agar soliq summasi ushbu fondlarning ustav maqsad va vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa).
8	Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar ro‘yxatdan o‘tgan sanadan so‘ng 2 yil mobaynida.

Kodeksning shu moddasiga muvofiq qo‘yidagi asosiy vositalar soliq solish bazasidan chegirib tashlanadi.

2-jadval

Soliq solish bazasidan qiymati chegirib tashlanadigan asosiy vositalar

Nº	Asosiy vositalarning turlari
1	Soliq to‘lovchining balansida turgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha ob’ektlari.
2	Tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlarida va yong‘inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan ob’ektlar.
3	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularning seleksiyasi, baliq yetishtirish, ovlash va uni qayta ishlash uchun foydalaniladigan ob’ektlar.
4	Mahsulot o‘tkazgichlar, aloqa yo‘llari (shu jumladan avtomobil yo‘llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlar.
5	Aloqa yo‘ldoshlari.
6	Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan konservatsiya qilingan asosiy vositalar.
7	Shahar yo‘lovchilar transporti (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashkari), shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashiydigan umumiyl foydalanishdagi avtomobil transportlari (taksi, yo‘nalishli taksidan tashqari).
8	Yo‘l xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining yo‘llarni ta’mirlash va saqlash ishlarida band bo‘lgan transport vositalari.
9	Davlat dasturlari bo‘yicha O‘.R. Qurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan transport v ositalari.

Egalik qilish huquqiga ko‘ra asosiy vositalar xususiy va joriy ijaraga olingan asosiy vositalarga bo‘linadi.

Xususiy asosiy vositalar – bu korxona balansiga kiritilgan o‘z asosiy vositalari va uzoq muddatga ijaraga olingan (lizingga olingan) asosiy vositalar.

Joriy ijaraga olingan asosiy vositalar – bu o‘zga korxonalardan vaqtinchalik (bir yilgacha) pul to‘lash sharti bilan ijaraga foydalanib turish uchun olingan asosiy vositalar.

Uzoq muddatga ijaraga olingan asosiy vositalar – bu bir yildan ko‘p muddatga shartnoma asosida boshqa korxonalardan ijaraga olingan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarni baholash. BHMS № 5 asosiy vositalarni baholashda qo‘yidagi qiymat turlaridan foydalanishni kuzda tutadi.

Boshlang‘ich qiymat – bu asosiy vositalarning hisob qiymati bo‘lib, o‘z ichiga sotib olish bahosi, shuningdek tashib keltirish, o‘rnatish, montaj, o‘rgatish, safar, bojxona harajatlarini va qo‘silgan qiymat solig‘ini oladi. Asosiy vositalar ushbu qiymati bo‘yicha korxonada butun xizmat muddati davrida hisobda turadi.

Tiklangan qiymat – buasosiy vositalarning qayta baholash, kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilingandan keyingi qiymati. Bu qiymat vaqtinchalik bo‘lib, qo‘srimcha qilingan harajatlar va qayta baholash natijasi asosiy vositalar qiymatiga kiritilgach boshlang‘ich qiymat bo‘lib qolaveradi.

Qoldiq qiymat – bu asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati va jamlangan eskirish summasi o‘rtasidagi farqi. Bu qiymatni **balans qiymati** ham deb ataydilar, chunki aynan shu qiymatda asosiy vositalar korxonaning balansida aks ettiriladi.

Sotish qiymati – bu asosiy vositalarning sotish vaqtida sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasida kelishilgan shartnomaviy qiymat.


Asosiy vositalar bo‘yicha buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- Asosiy vositalar holati va harakatini to‘g‘ri, o‘z vaqtida tegishli boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtirish va hisobga olish;
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) ni belgilangan usul va me’yorlar bo‘yicha to‘g‘ri hisoblash;

- Asosiy vositalarni Soliq Kodeksiga muvofiq soliqga tortilishini ta'minlash;
- Asosiy vositalarning butligini ta'minlash, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tqazish (inventarizatsiya qilish), uning natijalarini to'g'ri aniqlash va hisobga olish;
- Mavjud asosiy vositalardan unumli oydalanish, buning uchun ularni ishsiz turib qolishlariga yo'l qo'ymaslik, keraksiz asosiy vositalarni ijaraga berish, likvidatsiya kilish, bepul berish yoki sotish natijalarini to'g'ri hisobga olish;
- Asosiy vositalarga qilingan qo'shimcha harajatlarni (kapital quyilmalarni, joriy va capital ta'mirlash harajatlarini) to'g'ri hisobga olish, ularni o'z vaqtida maqsadiga qarab asosiy vositalarning qiymatiga yoki korxona harajatlariga kiritish;
- Asosiy vositalar bo'yicha lizing operatsiyalarini to'g'ri rasmiylashtirish va hisobga olish;
- Asosiy vositalar holati va harakati to'g'risidagi hisobotni to'g'ri tuzish va tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etish.

Asosiy vositalar hisobini yuritishga mo'ljallangan schetlar tizimi. 2002- yil 1 yanvardan joriy etilayotgan schyotlar rejasida asosiy vositalar hisobini yuritish uchun aktiv bo'lgan № 0100 «Asosiy vositalar hisobi schyotlari» va kontraktiv bo'lgan № 0200 «Asosiy vositalarning eskirishi hisobi schyotlari» tizimlari ko'zda tutilgan. Ushbu tizimlar o'z ichiga qo'yidagi schyotlarni oladi.

Asosiy vositalarni hisobga olishni engillashtirish maqsadida uni batafsil turkumlab olish maqsadga muvofiqdir. Asosiy vositalar bir qator belgilari bo'yicha turkumlanadi (1-chizma)




1-chizma: asosiy vositalarni turkumlanishi.

Asosiy vositalarning summoviy analitik hisobi korrespondensiyalanadigan schyotlar bo'yicha 13-jurnalorderda , soniy- summoviy analitik hisobi esa moddiy j avobgar shaxslar bo'yicha har bir inventar ob'ekt-ning kodi (tartib nomeri) bo'yicha kartochkalarda yoki kitobda (OS-7 shakl «Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi», OS-9 «Asosiy vositalarning inventor ro'yxati») yuritiladi. Ushbu kartochka va kitoblar asosiy vosita kelib tushganda ochiladi va ularning butun foydali xizmat muddati davri davomida saqlanadi.

1.2. Qurilish tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va tugatilishining hisobi va audit

Mahsulot ishlab chiqarish ishlarini bajarish yoki xizmat ko'rsatish yoxud tashkilotni boshqarish uchun foydalanilma-yotgan asosiy vositalar obyektlarining qiymati buxgalteriy balansidan chiqarishi kerak.

Quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida asosiy vositalar obyektlarining qiymati korxona aktivlari saqfidan chiqib ketadi



2-chizma. Asosiy vositalarning chiqib ketishini hisobga olish.

Asosiy vositalarni chiqib ketishi u yoki bu arib yuborilishini bildiradi. Asosiy vositalarni chiqib ketishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- tugatish;
- sotish;
- almashtirish;
- qaytarib olmaslik sharti bilan berish;
- pay badali ko'rinishida berish.

Bulardan tashqari asosiy vositalarni chiqib ketishiga tabiiy ofat natijasida yoki halokat natijasida nobud bo'lishi, moliyalashtiriladigan ijaraga berish natijasida yoki inventarizatsiya natijasida kamomad tariqasida aniqlanishi oqibatida chiqib ketishi ham mumkin.

Asosiy vositalarni chiqib ketishini hujjatli rasmiylashtirish ularni chiqib ketish sabablariga bog'liq. Ularni sotish, qaytarib olmaslik sharti bilan (hadya sifatida) berish va moliyalashtiriladigan ijaraga berish «**Asosiy vositalarni topshirish qabul qilib olish dalolatnomasi**» orqali rasmiylashtiriladi. Asosiy vositalarni kamomadi esa inventarizatsiya (yuqlama) dalolatnomasida qayd qilinadi. Asosiy vositalarni eskirishi, halokat yoki tabiiy ofat natijasida chikib ketishi «Asosiy vositalarni tugatilishi haqida dalolatnoma» orqali rasmiylashtiriladi.

Asosiy vositalarni chiqib ketish jarayoni turlicha vaziyatlarda yuz berishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilganidek, korxonaning asosiy vositalarini hisobdan chiqarilishi ularni **ixtiyoriy** (sotish, almashtirish) hisobdan chiqarish natijasi yoki **majburiy** (yong'in, zilzila, suv toshqini kabi tabiiy ofatlar oqibati) natijasidir. Asosiy vositalarning majburiy hisobdan chiqarilishi korxona nazoratidan tashqarida bo'lib, u tabiiy ofatlar natijasida yuz beradi. Shuningdek, asosiy vositalarni majburiy chiqib ketishiga davlatning o'z mulkiy huquqidan foydalanish natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkini olish (ma'lum bir sharoitlarda – davlat ahamiyatidagi magistral yo'llar, kanallar, zavod yoki fabrikalar qurilishi sababli ekspropriatsiya qilish) huquqini ham aytish mumkin.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarilayotganda, uni hisobdan chiqariladigan sanagacha bo'lgan davrga eskirish hisoblanishi va uni boshlang'ich qiymatiga mos ravishda o'zgartirishlar kiritish zarur. Shuningdek, asosiy vositaga to'g'ri keladigan soliqlar, sug'urta xarajatlari va shunga o'xshash xarajatlar, o'sib boruvchi yakun bilan chiqib ketish sanasiga hisoblanadi. Aktivning chiqib ketishi pay tiga ob'ektning boshlang'ich qiymati va uning xizmat muddatida hisoblangan eskirish summasi taalluqli buxgalteriya hisob varaqlaridan hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositaning balans qiymati va uning sotishdan tushgan tushumming farqi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda foyda va zarar sifatida aks ettiriladi. Agar asosiy vositalarni hisobdan chiqarish haqidagi qaror hisobot yilining oxiriga yakinroq qabul qilingan bo'lsa, u holda hisobdan chiqarishdagi zararlar shu yilda hisobga olinadi. Kutilayotgan hisobdan chiqarish xarajatlari zararlarni oshiradi va taxmin qilinayotgan qarzlarni shu xarajatlar so'mmasida hisobga olish zaruratini tug'diradi.

Endi asosiy vositalarning chikib ketishini qayd qilish tartibini, ya'ni buxgalteriya hisobida rasmiylashtirish tartibini har bir sabab bo'yicha alohida – alohida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, asosiy vositalar kam hollarda taxmin qilinayotgan xizmat muddati davomida ishlatiladi. Agarda asosiy vositalar bu muddatdan keyin ham foydalanilsa, unga eskirish hisoblanmaydi, unda balans qiymati qoldiq qiymatiga teng bo'ladi. Agarda to'la eskirgan aktivning qoldiq qiymati nolga teng bo'lsa, unda mulkni hisobdan chiqarish paytigacha yoki uni realizatsiya qilgunga qadar balans qiymati nolga teng bo'ladi.

Asosiy vositalarning tugatilishiga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari beriladi.

3-jadval**Asosiy vositalarning tugatilishi**

Nº	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt
1	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	9210	0100-0190
2	Asosiy vositalarning eskirish so'mmasiga	0210-0290	9210
3	Asosiy vositalarning qayta baholanish qiymatiga	8510	9210

Shu bilan asosiy vosita agarda xizmat muddati davomida o'zining tannarxini mahsulotga to'liq o'tkazgan bo'lsa u hisobdan chiqariladi va schyotlar yopiladi.

Eslatma: BHMSga ko'ra asosiy vositalar va boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishda vaqtinchalik (tranzit) hisobvaraq «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» hisob varag'i orqali aks ettiriladi⁵.

Asosiyvositalarningchiqibketishinatijasidapaydobo'lganfoydavazarlarboshqadarо madvaxarajatlarsingarimoliyaviynatijalarto'g'risidagihiisobotidaaksettiriladi.

Asosiy vositalarni pulga sotishni aks ettiruvchi buxgalteriya o'tkazmalarida yukori-dagiga o'xshash uning boshlang'ich qiymati va jamlangan eskirish so'm-masi ko'rsatiladi va shu bilan birga uni sotish natijasida olingan pul mablag'i ham aks ettiriladi.

4-jadval**Asosiy vositalarning sotilishi**

Nº	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt
1	Asosiy vositaning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarilishiga	9210	0100-0190
2	Asosiy vositalarning eskirish so'mmasiga	0210-0290	9210

⁵Buxgalteriya hisobi milliy standartlari

3	Asosiy vositalarning qayta baholanish qiymatiga	8510	9210
4	Asosiy vositaning sotish bahosi bilan qoldiq bahosi o'rtasidagi ijobiy farq yani daromad	9210	9310
5	Asosiy vositaning sotish bahosi bilan qoldiq bahosi o'rtasidagi salbiy farq yoki zarar	9430	9210

3 a) Asosiy vositalarni pulsiz asosida almashtirish. Buxgalteriya hisobi-ning xalqaro standartlari (BHXS) da asosiy vositalar ba'zi holda boshqa asosiy vositalarga ko'rsatilayotgan xizmatlarga ayriboshlash inobatga olinadi. Bun-day ayriboshlash harid qilish maqsadida ham, asosiy vositalarni hisobdan chiqarish maqsadida ham amalga oshiriladi. **Asosiy vositalar bo'yicha pulsiz asosda ayriboshlash** deganda aktivlarni, majburiyatlarni yoki xizmatlarni, boshqa aktivlar, majburiyatlar yoki xizmatlar bilan ko'p bo'lмаган miqdordagi pulni jalg qilish bilan yoki umuman pul mablag'larni jalg qilmay ayriboshlash tushuniladi.

Agarda pul ifodasida bo'lган ob'ektning haqiqiy qiymati chiqib ketgan yoki olingan aktivlar haqiqiy qiymatining 10% dan kamini tashkil qilsa, savdo pulsiz shakldagi bitim deb hisoblanadi.

BHXS ko'ra agar harid qilingan asosiy vositalarning haqiqiy qiymati aniq belgilangan bo'lmasa, u holda boshqa aktivlarga ayriboshlash orqali xarid qilingan aktivlar qiymati, berilgan aktivlarning haqiqiy qiymatiga teng deb hisoblanadi.

Agarda aktivlar turli toifada bo'lsa , unda ayriboshlash puldag'i savdo shaklida amalga oshiriladi. Foyda ham, zarar ham pul olinishi yoki to'lanishidan qat'iy nazar hisoba olinadi. Ayriboshlash holida foyda va zararni aniqlash va hisobga olish binoni hisobdan chiqarishga o'xhash jarayondek amalga oshiriladi. Foyda va zarar berib yuborilayotgan aktivning balans va bozor qiymatlari o'rtasida farq bo'lib daromad moddasi bo'yicha hisobga olinadi. Balans qiymati bozor bahosidan ortiq bo'lган holda, zarar vujudga keladi;

bozor qiymati balans qiymatidan past bo'lganida foyda vujudga keladi. Ushbu holda foyda va zararlar avval hisoblangan amortizatsiyaning tuzatish kiritishi hisoblanadi va u asosiy vositalar qiymatining ortishini (foyda) yoki kamayishini (zarar) bilan aks ettiriladi.

Bir turdag'i yoki o'xshash aktivlarni o'rinxma-o'rin ayriboshlashda foyda va zararlar hisobga olinmaydi. Korxonaning ayriboshlash natijasida olingan aktivlar hisobiga vujudga kelgan ish unumdorligini har qanday ortishi yoki kamayishi kelgusidagi daromadiga ta'sir qiladi. Buning natijasida xarid qilingan aktivlar ayriboshlash jarayonida berib yuborilgan aktivning balans qiymati bo'yicha hisobga olinib to'langan pul mablag'lari summasi qo'shiladi yoki olingan pul mablag'lari summasi ayrıldi.

3. b). Asosiy vositalarni ayriboshlashni qayd qilish. BHXS korxonalarining asosiy vositalarni boshqa mulklarga (biri sotadi, boshqasi xarid qi-ladi) almashtirishini, ya'ni barter qarama-qarshi savdoni amalga oshiri-lishini tan oladi. Masalan, eski dastgohni yangisiga almashtiriladi. Bunday hollarda sotib olish bahosi qarama-qarshi savdoda sotiladigan eski asosiy vosita-ning qiymati hajmidagi yangi narxdan beriladigan chegirma summasiga pasaytiriladi.

Barter usulida amalga oshirilgan ayriboshlashdagi buxgalteriya o'tkazmalari pul mablag'lariga sotishdagi o'tkazmalarga o'xshashdir. Asosiy vositalarni ayriboshlashidan olinadigan zarar va foydani aniqlashning (tan olishni) bir necha maxsus qoidalari mavjud bo'lib, ayriboshlanayotgan ob'ektlar tavsifga bog'liqidir.

Ayriboshlash jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan bir necha holatlarni ko'rib chiqamiz:

foydanı **zararnı**

tan olish **tan olish**

Moliyaviy hisobotni tuzish maqsadida:

Bir xil toifada bo'lмаган

Vositalarni ayriboshlash Ha Ha

Bir xil toifada bo'lgan

vositalarni ayriboshlash Ha Yo'q

Foydani soliqqa tortish maqsadida:

Bir xil turda bo'lмаган

vositalarni ayriboshlash Ha Ha

Bir xil turda bo'lgan

vositalarni ayriboshlashi Yo'q Yo'q

Keltirilgan malumotlardan kurinib turibdiki, bir xil toifada bo'lмаган vositalarni ayriboshlash holatida foyda yoki zarar ko'rsatiladi. Moliyaviy hisobot tuzilayotganida bir toifadag i vositalarning ayriboshlashidan olingan foyda ko'rsatilmaydi, chunki bu ashyo foyda keltiradigan muddat to'la foy-dalanilmaydi. Eski dastgohni bir muncha yangisiga almashtirish, eski dastgohni o'zgartirish yoki uni zamonaviylashtirishdek iqtisodiy ma'noga ega bo'ladi. Buxgalteriya hisobida yangi dastgohni hisobga olish eski dastgohni balans qiymatiga to'langan pul mablag'laridagi so'mmani qo'shish bilan ko'rsatiladi

4. Asosiy vositalarni qaytarib olmaslik sharti bilan berish yo'li orqali chiqib ketishi. Korxonalar ba'zan o'zlarining asosiy vositalarini boshqa tashkilotlarga hadya qiladilar. Asosiy vositalarni bunday hadya qilish keyingi yillarda tez-tez uchrab turibdi. Jumladan, yirik, iqtisodiy jihatdan baquvvat korxonalar institut va universitetlarning o'quv xonalari va laboratoriylarini jihozlash uchun berayotgan uskunalari, shifoxonalar, maktablar va qariyalar uyiga hadya sifatida berilayotgan jihozlarni misol keltirish mumkin. Bulardan tashqari bir korxona ikkinchi korxonaga ana shunday qaytib olmaslik sharti bilan berilayotgan asosiy vositalarni iqtisodiy ko'mak sifatida ham hadya qilmoqda.

Aktivlarni bergen korxona bu holda berilgan aktivlarning bozor qiymatiga teng bo'lgan xarajatlarni hisoblaydilar. Bozor qiymati berib yuborilgan aktivlarning balans qiymatiga emas, balki to'g'rirog'i, donorning olinmagan iqtisodiy samaradan yo'qotishlariga tengdir. Balans va bozor qiymatining

ayirmasiga teng bo'lgan foyda yoki zarar qaytarmaslik sharti bilan (tekinga) berib yuborilgan sifatida hisobga olinadi. Fakatgina qaytarmaslik sharti bilan berilishi bo'yicha so'zsiz majburiyat bo'lgandagina xarajatlar moddasi bo'yicha hisoblash amalga oshiriladi.

1.3. Quriliish tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi va auditining maqsad vazifalari va asosiy vositalar meyoriy huquqiy asoslari

Asosiy vositalar auditining bosh maqsadi – korxona egaligida bo'lgan, korxona faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan va qayta sotish uchun mo'ljallanmagan moddiy va nomoddiy aktivlar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini to'g'ri hisoblanganiga va balans, hamda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarda BHMS talablariga mos aks ettirilganiga ishonch hosil qilishdan iborat. Asosiy vositalar bo'yicha audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida auditorning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashga nisbatan samarali ichki nazorat tizimining tashkil etilganligini tekshirish va uning sifatini baholash;
2. buxgalteriya tizimi ma'lumotlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan asosiy vositalar va haqiqatdan ham mavjud va ular bo'yicha hisoblashishlar haqiqatdan ham ro'y bergenligiga ishonch hosil qilish;
3. asosiy vositalarning barchasi to'liq hisobga olinganligini tekshirish;
4. asosiy vositalar harakati va ular bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda arifmetik amallar to'g'ri bajarilganligini o'rganish;
5. balans hisobotida asosiy vositalar haqiqiy qiymatida aks ettirilganligini baholash;
6. balans hisobotida debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'ri guruhlashtirilganligiga va agar zarurat bo'lsa, ular bo'yicha zaruriy qo'shimcha ma'lumotlar ilovalarda to'liq va to'g'ri keltirilganligiga ishonch hosil qilish.

Asosiy vositalar auditining asosiy vazifalariga muvofiq tekshiruvni etti yo‘nalishga ajratish mumkin:

- 1) asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining audit;
- 2) asosiy vositalar harakatining audit;
- 3) asosiy vositalar bo‘yicha eskirish to‘g‘ri hisoblanganligining audit;
- 4) asosiy vositalar qabul qilinishi bo‘yicha operatsiyalarni tekshirish;
- 5) asosiy vositalar tugatilishi to‘g‘ri hisobga olinganligini tekshirish;
- 6) asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar asoslanganligini tekshirish;
- 7) asosiy vositalarga oid operatsiyalar to‘g‘ri soliqqa tortilganligini tekshirish.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish asosiy vositalar yuzasidan audit dalillariga asoslanadi. Asosiy vositalarni audit qilish vaqtida foydalaniladigan audit dalillari korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga bog‘liqdir. Bular jurnal-orderli, memorial-orderli, soddalashtirilgan, kompyuterda ishlov uchun yo‘naltirilgan, shuningdek, qo‘llaniladigan registrlar ro‘yxati, ularning tuzilishi, ulardagi yozuvlar muntazamligi va yozuv usullari bilan belgilanadi. Lekin, asosiy vositalar bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olish yuzasidan qanday shakl qo‘llanishiga qaramasdan ular dastlabki hisob hujjatlari quyidagi umumlashtirilgan idoralararo shakllarida rasmiylashtirishi lozimligini unutmaslik kerak:

-AV-1 shakli - asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (yuk xati);

-AV-3 shakli - ta’mirlangan, qaytadan tiklangan va zamonaviylashtirilgan ob’ektlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

-AV-4 - asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi;

-AV-4a - avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi;

-AV-6 - asosiy vositalarni hisobga olish bo‘yicha inventar varaqasi va boshqalar.

Asosiy vositalar va ular bo'yicha eskirishning sintetik hisobi 13, 10, 10/1-sonli jurnal-orderlarda olib boriladi, ma'lumotlarni kompyuterlashtirilgan texnologiyasi qo'llanilganda esa - "Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schetlar", "Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schetlar" schetlari bo'yicha debet va kredit aylanmalarning mashinogrammalarida; Bosh kitobda; buxgalteriya balansda (1-sonli shakl); "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da (2-sonli shakl); "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot"da (3-sonli shakl) olib boriladi.

Xo'jalik yurutuvchi subektlarda asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishdan asosiy maqsad korxonaning moliyaviy hisobotining 1-shaklida yani "Buxgalteriya balansi"da keltirilgan asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligi, asosiy vositalarning harakati (asosiy vositalarning kirimi, asosiy vositalarga hisoblangan eskirish, asosiy vositalarning qayta baholanishi, asosiy vositalarning chiqib ketishi) to'g'ri yurutilganligi, qonun va qonun osti hujjatlariga mosligini tekshirish, tekshiruv natijalari bo'yicha byurtmachiga xulosa taqdim qilish va aniqlangan chetlanishlani tuzatish bo'yicha tegishlicha takliflar berishdan iborat.

Asosiy vositalar bo'yicha auditning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Asosiy vositalar holati va harakatini to'g'ri, o'z vaqtida tegishli boshlang'ich hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini va hisobga olinganligini tekshirish;
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) ni belgilangan usul va me'yorlar bo'yicha to'g'ri hisoblanganligini tekshirish;
- Asosiy vositalarni Soliq Kodeksiga muvofiq soliqga tortilishini ta'minlanganligini tekshirish;
- Asosiy vositalarning butligini ta'minlanganligini, buning uchun ularni belgilangan muddatlarda qayta ro'yxatdan o'tqazilganligini (inventarizatsiya

qilinganligini), uning natijalarini to‘g‘ri aniqlanganligini va hisobga olinganligini tekshirish;

• Asosiy vositalarga qilingan qo‘sishimcha harajatlarni (kapital quyilmalarni, joriy va capital ta’mirlash harajatlarini) to‘g‘ri hisobga olinganligini, ularni o‘z vaqtida maqsadiga qarab asosiy vositalarning qiymatiga yoki korxona harajatlariga kiritilganligini tekshirish;

• Asosiy vositalar bo‘yicha lizing operatsiyalarini to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini va hisobga olinganligini tekshirish.

Qurulish tashkilotlarida asosiy vositalar auditining qonuniy-huquqiy asosi deyilganda mamlakatimizda qabul qilingan asosiy vositalarga oid meyoriy xujjatlar yoki tarkibida asosiy vositalarga oid malum tushuntirishlar berilgan qonun xujjatlarini keltirishimiz mumkin. Qurulish tashkilotlarida asosiy vositalar auditining qonuniy – huquqiy asosi sifatida quyidagi quyidagi qonun hujjatlarini keltirishimiz mumkin.

- ❖ O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- ❖ Mehnat kodeksi;
- ❖ Fuqorolik kodeksi;
- ❖ Soliq kodeksi;
- ❖ “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun;
- ❖ “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun;
- ❖ “Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi” to‘g‘risidagi 54-son Nizom;
- ❖ Auditorlik faoliyati milliy standartlari;
- ❖ Buxgalteriya hisobi milliy standartlari;

❖ Boshqa qonun hujjatlari.

Ushbu qonun hujjatlarida asosiy vositalar va ularni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha malum tartibda qonuniy-huquqiy asosi belgilab berilgan.

Soliq Kodeksiga muvofiq (23- modda) asosiy vositalar amortizatsiya me'yorlari bo'yicha qo'yidagi beshta guruhga bo'linadi.

5- jadval

O'zbekiston Respublikasida asosiy fondlar bo'yicha amortizatsiya me'yorlari

Nº	Asosiy vositalarning turlari	Amortizatsiya me'yorlari, %
1.	Yengil avtomobillar, taksi, yo'lda ishlatish uchun avtotraktor texnikasi, maxsus instrumentlar, inventarlar. Kompyuterlar, periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni ishlovi bo'yicha jihozlar.	20
2.	Yuk tashish avtomobilari, avtobuslar, maxsus avtomobil va pritseplar. Sanoatning barcha tarmoqlari uchun mashina va jihozlar, qurilish jihozlari, qishloq xo'jaligi texnika va jihozlari. Ofis uchun mebel.	15
3.	Temir yo'l, dengiz, daryo va havo transport vositalari. Issiqlik texnikasi jihozlari, truba jihozlar, elektrosvigatellar va dizel-generatorlar. Elektr quvvati va aloqa qurilmalari. Truboprovodlar.	8
4.	Binolar, inshoatlar va qurilmalar.	5
5.	Yuqorida quruqlarga kirmaydigan amortizatsiyalanadigan aktivlar.	10

Soliqga munosabatiga ko'ra asosiy vositalar mol-mulk solig'iga tortilla-digan va tortilmaydigan quruqlarga bo'linadi. Soliq Kodeksining 92-

moddasiga muvofiq qo‘yidagi turdagи korxona va tashkilotlarning asosiy vositalar mol-mulk solig‘iga tortilmaydi.

6- jadval

Mol- mulk solig‘idan ozod qilingan korxona va tashkilotlar

Nº	Korxonalarning turlari
1	Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan mol-mulk bundan mustasno).
2	Halk ta’limi va madaniyat muassasalari.
3	Uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviylar ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi.
4	Qishloq xo‘jalik va chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi, ularning seleksiyasi va saqlashi, baliq yetishtiruvchi, ovlash va uni qayta ishslash korxonalar.
5	Ustav kapitalida chetel sarmoyasining ulushi kamida 500 ming AQSH dollarini tashkil etadigan yuridik shaxslar.
6	Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tashkil etilgan sanadan boshlab dastlabki foyda olguniga qadar, lekinda ro‘yx atdan o‘tgan sanadan boshlab uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga (imtiyozli davrdan keyin bir yil o‘tguniga qadar bu korxonalar yopilsa, u holda ular soliq summasini butun faoliyati davri uchun to‘liq miqdorda to‘laydilar).
7	«Sog‘lom avlod uchun» Xalqaro hayriya jamg‘armasi, Qizil Yarim Oy jamiyati, «Nuroniy» jamg‘armasi tasarrufidagi korxonalar (agar soliq summasi ushbu fondlarning ustav maqsad va vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa).
8	Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar ro‘yxatdan o‘tgan sanadan so‘ng 2 yil mobaynida.

Kodeksning shu moddasiga muvofiq qo‘yidagi asosiy vositalar soliq solish bazasidan chegirib tashlanadi.

7- jadval

Soliq solish bazasidan qiymati chegirib tashlanadigan asosiy vositalar

Nº	Asosiy vositalarning turlari
1	Soliq to‘lovchining balansida turgan uy-joy-kommunal va ijtimoiy-madaniy soha ob’ektlari.
2	Tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlarida va yong‘inga qarshi xavfsizlik uchun foydalaniladigan ob’ektlar.
3	Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va ularning seleksiyasi, baliq yetishtirish, ovlash va uni qayta ishslash uchun foydalaniladigan ob’ektlar.
4	Mahsulot o‘tkazgichlar, aloqa yo‘llari (shu jumladan avtomobil yo‘llari), aloqa va energiya uzatish liniyalarining, shuningdek ularni foydalanishga yaroqli holda saqlab turish maqsadida qurilgan inshootlar.
5	Aloqa yo‘ldoshlari.
6	Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan konservatsiya qilingan asosiy vositalar.
7	Shahar yo‘lovchilar transporti (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashkari), shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilarni tashiydigan umumiyl foydalanishdagi avtomobil transportlari (taksi, yo‘nalishli taksidan tashqari).
8	Yo‘l xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlarining yo‘llarni ta’mirlash va saqlash ishlarida band bo‘lgan transport vositalari.
9	Davlat dasturlari bo‘yicha O‘.R. Qurolli Kuchlari uchun kadrlar tayyorlashda foydalaniladigan transport vositalari.

Asosiy vositalarning summoviy analitik hisobi korrespondensiylanadigan schyotlar bo‘yicha 13-jurnalorderda , soniy- summoviy analitik hisobi esa moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha har bir inventar ob’ektning kodi (tartib nomeri) bo‘yicha kartochkalarda yoki kitobda (OS-7 shakl «Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi», OS-9 «Asosiy

vositalarning inventor ro‘yxati») yuritiladi. Ushbu kartochka va kitoblar asosiy vosita kelib tushganda ochiladi va ularning butun foydali xizmat muddati davri davomida saqlanadi.

Soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida har yillik amortizatsiya me’yorlari harajatlarga bir maromda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan.

Hisobot yili davomida asosiy vositalar ob’ekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmalar qo‘llaniladigan hisoblash usulidan qat’i nazar (amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulidan tashqari), yillik summaning 1/12 miqdorida har oyda hisoblanadi.

Mavsumiy ajratmalarining yillik summasi hisobot yilda korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalanish davri mobaynida bir maromda hisoblanadi.

Qo‘llaniladigan amortizatsiyani hisoblash usuli korxonaning hisob siyosatida majburiy tartibda aks ettiriladi. Korxonalar kalendar yili davomida hisob siyosatini o‘zgartirmasligi kerak, «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”ning (ro‘yxat raqami 474, 1998 yil 14 avgust, Me’oriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y., 5-son) 56-bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno».⁶

Asosiy vositalarni qayta baholash har yili (1 fevralgacha) 1- yanvar holatiga ko‘ra qayta baholash o’tkazilayotgan paytdagi narxlar darajasidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Asosiy vositalarni qayta baholash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2002 yil 29 oktyabrdan 129-son bilan

^⁶BXMS №5 «Asosiy vositalar». O’z.R. Adlya vazirligi tomonidan 1998 yil 23 avgustda ro‘yxatga olingan №491

tasdiqlangan «1 yanvar xolati bo'yicha asosiy fondlarni har yillik qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi» Nizom⁷ bilan t artibga solinadi.

Shuni aytib o'tish joizki, 5-sonli BHMSning 53 moddasiga binoan asosiy vositalar ob'ektlarining chiqib ketishidan ko'rilgan moliyaviy natijani (foyda yoki zararni) aniqlashda ilgari qayta baholangan asosiy vositalar ob'ektlarini qo'shimcha baholash summasi, mazkur asosiy vositalar ob'ektini ilgarigi qo'shimcha baholashlar summasining ilgarigi arzonlashtirishlar summasidan oshib ketishi «Mol-mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» hisobvarag'i bo'yicha zahira sarmoyasini bir yo'la kamaytirish bilan asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan daromad tarkibiga kiritiladi.

⁷1- yanvar xolati bo'yicha asosiy fond lerni har yillik qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi» Nizom

II-BOB. «QUYI TEGANA QURUVCHI» XUSUSIY KORXONASIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI

2.1. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarning umumiy tarkibiy tuzilishi

„Quyi Tegana quruvchi”xususiy korxonasi 2006 14-sentabrda tashkil topgan.

Tashkiliy huquqiy shakli: TXSH-1010

Mulkchilik shakli: MSH 114

Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili: MXOVT-1718236800

Yuridik shaxs kodi: KTUT- 05935184

Tarmoq kodi: XXTUT- 61000

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami: STIR 200784235 (2-Ilova)

QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasining asosiy faoliyat turlari quyidagilar:

- Axoli vatashkilotlarga qurilish, qurilish tamirlash, santexnika, mantaj, bezatish ishlari, gaz va suv quvularini tortish, elektromantaj ishlarini bajarish.
- Xalq istemoli mollari (tikuvchilik to'quvchilik oyoq kiyimlari) ishlab chiqarish va sotish.
- Chakana savdo faoliyatini amalga oshirish.
- Gazlama maxsulotlari ishlab chiqarish va sotish.
- Aftomabillarga yoqilg'i va suyiltirilgan gaz quyish shaxobchalari tashkil qi lish va xizmat ko'rsatish.
- Chanqoqbosar sipirtli va vino maxsulotlari bilan savdo faoliyatini amalga oshirish.
- Axoli va tashkilotlarga transpirt xizmati ko'rsatish.
- Yangi tessarufda bo'lgan aftomashinalar, o'zi yurar texnikalar va ularning extiyot qisimlari bilan .
- O'zi yurar texnikalar va ularning extiyot qisimlari bilan savdo faoliyatini amalga oshirish.

- Xujatlardan nusxa ko'chirish xizmatini tashkil etib axoliga xizmat ko'rsatish. Qurilish maxsulotlari va uy joy jixozlarini ishlab chiqarish va sotish.
- Axolidan qurilish materiallarini sotib olish ayraboshlash ishlab chiqarish va qayta ishslash sexlari tashkil etish va sotish.
- Ijaraga berish shaxobchalarini tashkil qilish (transport mayishiy texnika vidiyo audiyo kasetalar) .
- Ko'priklarni , kichik va katta suniy inshoatlarni qurish.

Ishlab chiqarish va ishtimoiy vakzal temiryo'l stansiyalari temiryo'ldagi kichik stansiyalar va uy joy abyektlarini qurish va boshqalar. (1-ilova) Har bir korxonada xo'jalik faoliyatini olib borishi uchun asos vazifasini asosiy vosita egallaydi. “QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida ham 2017 yil 1-yanvar holatiga yetmishta turdagiaswosiy vositalari mavjud.

Bular quyidagilar

8-jadval

asosiy vositalarning umumiy tarkibiy tuzilishi

№	Asosiy vositalarni nomi	01.01.2017 yil		
		Boshlang'ich qiymat	Eskirish qiymat	Qoldiq summa
1	Kantora 2-qavvatli	32085492	26919818	5165674
2	Ayvon	0	0	0
3	Yordamchi bino	0	0	0
4	Oshxona	14431977	13548000	883977
5	Sauna binosi	9848533.6	8945400	903133.6
6	Ayvon	0	0	0
7	O'tish joyi	0	0	0
8	Qozonxona	0	0	0
9	Yordamchi bino	212345.64	212345.64	0
10	GRP binosi	1208216.52	1208216.52	0

11	Tokarlik sexi	769687.92	769687.92	0
12	Ayvon	1910798.64	1910798.64	0
13	Omborxona	9215485.8	9215485.8	0
14	Qorovulkxona	401594.4	401594.4	0
15	Issiqxonaxa	0	0	0
16	Ustaxona	4861893.24	4861893.24	0
17	Avtogaraj	0	0	0
18	Yordamchi bino	0	0	0
19	Xojatxona	235754.64	235754.64	0
20	Biton xovuz	385884.36	385884.36	0
21	Biton xovuz	0	0	0
22	Temir darvoza	851119	428026.2	423092.8
23	Benzakalonka	0	0	0
24	Chegara darvoza 300 metr	0	0	0
25	Asvaltli maydoncha	0	0	0
26	Transformator	0	0	0
27	GRP 400	1331503.92	1185416	146087.92
28	Ostonovka	0	0	0
29	Oxak so'ndirish havzasi	0	0	0
30	Traktor MTZ -80	2030860.8	1921602	109258.8
31	Traktor t-4 buldozer	1973638.8	1421019	552619.8
32	Avtomashina MAZ-500	0	0	0
33	Ekiskovator EO-4221	7525213.2	4862116	2663097.2
34	Ekiskovator YUM -361	0	0	0
35	Kamaz -5410	4889880	4889880	0
36	Kamaz-5310	4992879.6	4992879.6	0
37	Kamaz 5410	2770585.2	2770585.2	0
38	Gaz-53 volga	0	0	0

39	Avtobus KAVZ	0	0	0
40	Zil MMZ-4502	0	0	0
41	Traktor T-150	2158101.72	2158101.72	0
42	Gaz -53 benzavoz	0	0	0
43	Zil-133 avtokran	5058424.8	3927780.5	1130644.3
44	Zil-133 bortovoy	0	0	0
45	Matiz	11803342	10214210	1589132
46	Neksiya dons 1.6	21913923	14568420	7345503
47	Gurzavoy	0	0	0
48	Avtogurzavoy	0	0	0
49	Prisep ODAZ	0	0	0
50	Sementavoz	0	0	0
51	Tyaga stanok	0	0	0
52	Stol stanogi	0	0	0
53	Benzakalonka	0	0	0
54	Tokarli stanok	0	0	0
55	Siviril stanogi	0	0	0
56	Stanok tachilni	0	0	0
57	Prisep -2 PTS	0	0	0
58	Prisep -88-78	0	0	0
59	Kanveyir	0	0	0
60	Yomkist 2m3	0	0	0
61	Yomkist 3m3	0	0	0
62	Katyol-300	443626.56	443626.56	0
63	Svarka sexi	30067.78	30067.78	0
64	Sotiviy telifon	0	0	0
65	Demarsratsiya stoli	781635	112350	669285
66	Stul polumiyaxki	81432	42978	38454

67	3- qavatl shikaf	1281325	549980	731345
68	Aftomat AZ-1460	0	0	0
69	Kobult	48015749	13280150	34735599
70	Bolalar atraksoni	80000000	16402100.5	6359799.5
	Jami	273500971	152816168	120684803


Jadvaldan ko’rinib turibdiki „QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida jami yetmishta asosiy vosita bo’lib quyidagi asosiy vositalar o’tgan yillar davomida eskirish hisoblanib o’zining qiymatini to’liq ishlab chiqilgan mahsulot tan narxiga o’tkazgan; ayvon, yordamchi bino, ayvon, o’tish joyi, qozonxona, issiqxona, avtogaраж, yordamchi bino, biton xovuz, benzakalonka, chegara darvoza 300 metr, asvaltli maydoncha, transformator, ostonovka, oxak so’ndirish havzasi, avtomashina MAZ-500, ekiskovator YUM -361, gaz-53 volga, avtobus KAVZ, zil MMZ-4502, gaz -53 benzavoz, zil-133 bortovoy, gurzavoy avtogurzavoy prisep ODAZ, sementavoz, tyaga stanok, stol stanogi, benzakalonka, tokarli stanok, siviril stanogi, stanok tachilni, prisep - 2 PTS, prisep -88-78, kanveyir, yomkist 2m3 yomkist 3m3 sotiviy telefon aftomat AZ-1460.

„QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida 2017-yil 1-yanvar holatiga asosiy vositalariga eskirish hisoblanib quyidagi asosiy vositalar o’z qiymatini mahsulot tannarxiga o’tkazgan; Yordamchi bino; 212345.64 , GRP binosi; 1208216.52, Tokarlik sexi; 769687.92, Ayvon; 1910798.64 , Omborxona; 9215485.8 , Qorovulkxona; 401594.4, Ustaxona; 4861893.24, Xojatxona; 235754.64, Biton xovuz; 385884.36 Kamaz -5410; 4889880, Kamaz-5310; 4992879.6, Kamaz 5410 ; 2770585.2, Traktor T-150; 2158101.72, Katyol-300; 443626.56, Svarka sexi; 30067.78. 2017-yil 1-yanvar holatiga jami 152816168 so’m eskirish hisoblanib asosiy vositralar qiymati ishlab chiqarilgan mahsulot tan narxiga o’tgan.

„QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida 2017-yil 1-yanvar holatiga quyidagi asosiy vositalar qoldiqlari mavjud; kantora 2-qavvatli; 5165674, oshxona; 883977, sauna binosi; 903133.6, temir darvoza; 423092.8, GRP 400; 146087.92, traktor MTZ -80; 109258.8, traktor t-4 buldozer; 552619.8, ekiskovator EO-4221; 2663097.2, zil-133 avtokran; 1130644.3, matiz; 1589132; neksiya dons 1.6; 7345503, demarsratsiya stoli; 669285, stul polumiyaxki; 38454, 3- qavatlari shikaf; 731345, kobult; 34735599, bolalar atraksoni; 6359799.5. „QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida 2017-yil 1-yanvar holatiga jami 120684803 so’mli asosiy vositalar qoldig'i mavjud. Tarz (5-ilova).

1-diagramma

QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasining 2017-yil 1-yanvar holatiga asosiy vositalarning o’zgarish diogrammasi.



2.2. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarning hisobini yuritilishi va xujjatlashtirish tartibi

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalarning hisobi quyidagi schyotlarda yuritiladi.

0120 (Binolar)- “Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida ushbu schyotda quyidagi asosiy vositalar hisobi yurutiladi. Kantora 2 qavatli, yordamchi bino, oshxona, sauna binosi, qozonxona, GRP binosi, tokorlik sexi, omborxona, issiqxona, qaravulxona, avtogaraj va boshqalar.

0130 (mashina va uskunalar): transfarmator, GRP-400, stanok tokorniy, stanok sverilney.

0140(Mebel va ofis jihozlari)-stol, stul, yumshoq mebil.

0150(kompyeter jihozlari)-ofes kompyuterlari;

0160(transport vositalari)-kamaz 5410, kamaz 5310, gaz 53 volga, avtobus KAVZ, zil MMz4502, traktor T-150, Zil-153.

0190(boshqa asosiy vositalar)-“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida mavjud boshqa asosiy vositalar.

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalarni eskirish so’mmasi 0200 (asosiy vositalarni eskirishini hisobga oluvchi schyotlar)da yurutiladi.“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida 2016-yil 1-yanvar holatiga asosiy vositalarning qiymati 273500 so’mni tashkil qilgan. 2017-yil 1-yanvarga kelib asosiy vositalar qayta baholangandan so’ng 278670 so’mni tashkil qiladi. (6-ilova) Malumotlardan ko’rinib turubdiki “Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida 2016-2017-yillar oralig’ida asosiy vositalar miqdori ko’paygan. asosiy vositalarning ko’payishi “Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasidagi mavjud asosiy vositalarini qayta baholanishi natijasiga ko’paygan.

„QUYI TEGANA QURUVCHI,, xususiy korxonasidagi asosiy vositalar 2017 yil 1-yanvar holati bo'yicha qayta baholanishini quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

9-jadval

**„QUYI TEGANA QURUVCHI” Xususiy korxonasining Indeks
usulida Asosiy vositalarini qayta baxolanish**

<i>Asosiy vositalar nomi.</i>	<i>Ishlab chiqilgan sanasi</i>	<i>O'lchami bir</i>	<i>soni</i>	<i>01.01.2017 yil</i>		
				<i>boshlang`ich qiymati/</i>	<i>indekslari</i>	<i>qayta baholash summasi</i>
Kantora 2 qavatli	1986 yil	dona	1	32085492	1	32085492
Oshxona	1986 yil	dona	1	144311977	1	144311977
Sauna binosi	1986 yil	dona	1	9848533.6	1	9848533.6
Temir darvoza	1986 yil	dona	1	851119	1	851119
GRP 400	1986 yil	dona	1	1331503.92	1.028	1368786.03
Traktor MTZ-80	1989yil	dona	1	2030860.8	1.028	2087724.902
Ekiskovator EO-4221	1987yil	dona	1	7525213.2	1.028	7735919.17
Zil 133 gya Avtokran	1990yil	dona	1	5058424,8	1.028	5200060.694
Neksiya Dons 1,6	2009yil	dona	1	21913923	1.019	22330287.54
Matiz	2004yil	dona	1	11803342	1.019	10408279.99
Demastratsion stol	2013yil	dona	1	781635	1.028	803520.78
Stol polumyaxkiy	2013yil	dona	1	81432	1.028	83712.096
Uch bo'limli shkaf	2013 yil	dona	1	1281325	1.028	1317202.1
Avtomashina kobalat	2014yil	dona	1	48015749	1.019	48928048.23
Bolalar atraksioni	2014 yil	dona	3	80000000	1.028	82240000
Traktor t-4 buldozer	1985 yil	dona	1	1973638.8	1.028	2028900.686
Jami.			18	273500971.1	67.184	278670384.7


O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan 1-yanvar xolati bo'yicha asosiy fondler har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning (MISB, MV va DSQning AV tomonidan 4.12. 2012-

yilda 1192-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan qarori bilan tasdiqlangan) 7-bandini ijro etish maqsadida 2017-yil 1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni qaqyta baholash indekslari ishlab chiqildi.

„QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasida asosiy vositalarni qayta baholash 2017-yil 1-yanvar holatida qayta bahosh yangi indekslar bo'yicha qayta baholanganda quyidagi asosiy vositalar o'zgarishiga olib keldi . GRP 400; 1368786.3, traktor MTZ-80; 2087724.92, ekiskvator EO 4221; 7735919.17, zil 113 gya aftokran; 50200060.694, neksiya dons 1.6 22330287.54, matiz; 10408279.99, demastratsion stol; 803520.78, stol polumyaxkiy; 83712.096, uh bo'limli shkaf; 1317202.1 aftomashina kobult; 48928048.23 bolalar atraksiuni; 82240000 traktor t-4 buldozer; 2028900.686, jami 278670384.7 so'mni tashkil etdi. 2017- yil 1-yanvar holatidagi asosiy vositalar qayta baholanguncha bo'lган summasiga nisbatan, qayta baholangandan so'ng asosiy vositalar 48042255.41 so'mga ko'paydi. Bu esa bevosita asosiy vositalar eskirishish summasi va balansga tasir korsatadi.

2-diagramma

“QUYI TEGANA QURUVCHI” xususiy korxonasining 2015-yil yukunida asosiy vositalarning o'zgarishi



„QUYI TEGANA QURUVVCHI,, xususiy korxojnasida asosiy vositalarni qayta baxolanish natijasida asosiy vositalarni qiymatini o'sishida quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

DT: 0110-0190 Kt:8510 So'mma: 48042255.41

Asosiy vositalar eskirish summasiga esaquyidagicha buxgalteriya provodkasi beiladi.

DT 8510 KT0210 so'mma 2024637.602 (6-ilova)

„QUYI TEGANA QURUVVCHI,, xususiy korxonasida asosiy vositalarning ko'payishi yuqorida keltirilgan manbalardan tashqari yana asosiy vositalarni tasischilar ham tasis badali sifatida kiritishi mumkin. Bu holatda korxonada asosiy vositalarga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Dt: 0110-0190 Kt:4610

„QUYI TEGANA QURUVVCHI,, xususiy korxonasida asosiy vositalarning chiqimi quyidagi schytzlarda olib boriladi va quyidagicha buxgalteriya yozuvlari beriladi.

10- jadval

Asosiy vositalarni chiqimi

№	Operatsiyaning mazmuni	Debet	Kredit	Asos bo'luvchi hujjat
Asosiy vositalarning sotilishi				
1.	Sotish qiymatiga	4010	9210	Schet-faktura
2.	QQS summasiga	4010	6410	Schet-faktura
3.	Boshlang'ich qiymatiga	9210	0112-0199	Schet-faktura, Inventar kartochka
4.	Eskirish summasiga	0212-0290	9210	Schet-faktura, Inventar kartochka
5.	Sotishdan olingan foyda summasiga	9210	9310	Hisob-kitob
6.	Sotishdan ko'rilgan zarar summasiga	9430	9210	Hisob-kitob
Asosiy vositani likvidatsiya qilish				
1.	Boshlang'ich qiymatiga	9210	0112-0199	Likvidatsiya dalolatnomasi
2.	Eskirish summasiga	0212-	9210	Likvidatsiya

		0290		dalolatnomasi
3.	Olingan aktivlar summasiga	1010-1090	9210	Likvidatsiya dalolatnomasi
4.	Likvidatsiya harajatlari summasiga	9210	6710,6520 6990	Likvidatsiya dalolatnomasi
5	Olingan foyda summasiga	9210	9310	Hisob-kitob
6	Ko‘rilgan zarar summasiga	9430	9210	Hisob-kitob
Ta’sis badali sifatida kiritish				
1.	Kelishuv qiymatiga	0610-0690	9210	Ta’sis shartnomasi, schet-faktura
2.	QQS summasiga	9430	6410	Ta’sis shartnomasi, schet-faktura
3.	Boshlang‘ich qiymatiga	9210	0112-0199	Ta’sis shartnomasi, schet-faktura, Inventar kartochka
4.	Eskirish summasiga	0212-0290	9210	Ta’sis shartnomasi, schet-faktura, Inventar kartochka
5	Olingan foyda summasiga	9210	9310	Hisob-kitob
6	Ko‘rilgan zarar summasiga	9430	9210	Hisob-kitob
Bepul berilishi				
1.	Boshlang‘ich qiymatiga	9210	0112-0199	SHartnoma, schet-faktura, Inventar kartochka
2	Eskirish summasiga	0212-0290	9210	SHartnoma, schet-faktura, Inventar kartochka
3.	QQS summasiga	9430	6410	SHartnoma, Schet-faktura
4	Ko‘rilgan zarar summasiga	9430	9210	Hisob-kitob
Inventarizatsiyada kamomad aniqlanganda				
1.	Boshlang‘ich qiymatiga	9210	0112-0199	Inventarizatsiya dalolatnomasi

2.	Eskirish summasiga	0212-0290	9210	Inventarizatsiya dalolatnomasi
3.	Ko‘rilgan zarar summasiga	5910	9210	Inventarizatsiya dalolatnomasi
4.	Zarar moddiy javobgar shaxsning bo‘yniga qo‘yilganda	4730	5910	Inventarizatsiya dalolatnomasi, qaror
5.	Zarar korxona hisobidan qoplanganda	9430	9210	Inventarizatsiya dalolatnomasi, qaror

Ma’lumki, asosiy vositalarni ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat mobay-nida ishlatilishi, ularni anashu muddat mobaynida tabiiy kuchlar ta’siri ostida jismoniy, ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida esa ma’naviy eskirishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya tamoyillariga muvofiq asosiy vositalarning qiymati ularni anashu taxmin qilinayotgan ishlatish muddati mobaynida, ular foyda keltiradigan hisobot davri davomida teng ravishda taqsimlanishi (hisobdan chiqarilishi) kerak. Bu jarayon eskirish deb ataladi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning asosiy vazifasi uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlar qiymatini taxmin qilinayotgan xizmat muddati davomida qo‘llaniladigan tizimli va ratsional yozuvlar asosida taqsimlashdir. Barcha uzoq foydalaniladigan aktivlar (erdan tashqari) cheklangan ishlatish (xizmat) muddatiga ega bo‘lib, ularning qiymati barcha ishlatilish muddati yillari davomida harajatlarga taqsimlanishi kerak. Aktivlarning xizmat muddatini cheklanganligining asosiy sabablari ularning jismoniy va ma’naviy eskirishidir. Asosiy vositalar ko‘pincha jismoniy eskirishga ulgurmasdan, ma’naviy eskirib qoladi. Buxgalterlar odatda jismoniy va ma’naviy eskirish o‘rtasida farqni ajratmaydilar, chunki ularni asosiy vositalarning foydalanish muddati qiziqtiradi.

Asosiy vositalarning eskirish miqdorini hisoblashga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bular asosiy vositalarning:

- boshlang‘ich qiymati;
- qoldiq qiymati (tugatish qiymati);
- eskirish hisoblanadigan qiymati;
- taxmin qilinayotgan foydalanish muddati.

Asosiy vositalarga eskirishni hisoblash turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Soliq Kodeksida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning bir maromli hisobdan chiqarish usuli tavsiya qilingan bo‘lsada amaliyotda uning boshqa usullarini ham qo‘llash mumkin. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarga eskirish isoblashning quyidagi usullari qo‘llaniladi:

- amortizatsiyani bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash;
- bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli);
- ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;
- yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Amortizatsiyani bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya bir maromda, asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi.

Mazkur usulga ko‘ra asosiy vositalar ob’ektining amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli harajatlarga bir maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Ushbu usul amortizatsiya me’yori foydali xizmat muddatining aoliyatiga bog‘liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalarini summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni ob’ektdan foydalanilgan hisobot davrlaridagi soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan kelib chiqib, mazkur ob’ektning tugatish qiymatini va foydali ishlatish muddatini ayirgan holda, belgilanadi.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisob-lash (ishlab chiqarish usuli).

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalar ob'ektining mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan.

Mazkur usul bo'yicha har yillik mortizatsiya hajmini hisob-kitob qilish uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiylashtirish mahsulotlar yig'indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, o'tib bo'lingan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko'rsatkichidan hamda tugatish qiymatini ayirgan holdagi asosiy vositalar ob'ektining boshlang'ich (tiklash) qiymatining asosiy vositalar ob'ektini butun foydali ishlatish muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatan mutanosibligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiyani hisoblash davrida amortizatsiyalanadigan aktiv qiymatining kamayishini anglatadi.

Mazkur usulga ko'ra bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki baravar amortizatsiya me'yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko'paytiriladi. Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo'yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang'ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot yili boshidagi asosiy vositalar ob'ektining qoldiq qiymatidan va mazkur ob'ektni foydali ishlatish muddatiga

bog‘liq holda hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me’yoridan kelib chiqqan holda a niqlanadi.

Yillar summasi usuliga (kumulyativ usulga) ko‘ra har yili amortizatsiya me’yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to‘liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Yillar summasi usulida (kumulyativ usulda) amortizatsiya ajratmalari-ning yillik summasi asosiy vositalar ob’ektining tugatish qiymati ayirilgan holda boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan hamda suratida ob’ektni foydali ishlatish muddatining oxiriga qadar qoladigan yillar soni, maxrajida esa - ob’ektni foydali ishlatish muddati yillari soni summasining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Er uchastkalariga amortizatsiya hisoblanmaydi. SHuningdek quyidagi asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblanmaydi:

- a)** mahsuldor qoramollar;
- b)** kutubxona fondlari;
- v)** hokimiyatlarga bo‘ysunadigan obodonlashtirish inshootlari;
- g)** qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan fondlar;
- d)** muzey qimmatliklari;
- e)** arxitektura va san’at yodgorliklari;
- j)** umumi yofdalanishdagi avtomobil yo‘llari;
- z)** to‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida har yillik amortizatsiya me’yorlari harajatlarga bir maromda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan.

Hisobot yili davomida asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha amortizatsiya ajratmalar qo'llaniladigan hisoblash usulidan qat'i nazar (amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulidan tashqari), yillik summaning 1/12 miqdorida har oyda hisoblanadi.

Mavsumiy tusdagi ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yilda korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalanish davri mobaynida bir maromda hisoblanadi.

Qo'llaniladigan amortizatsiyani hisoblash usuli korxonaning hisob siyosatida majburiy tartibda aks ettiriladi. Korxonalar kalendar yili davomida hisob siyosatini o'zgartirmasligi kerak, «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 iyulda 17-07/86-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-son BHMS) "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"ning (ro'yxat raqami 474, 1998 yil 14 avgust, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y., 5-son) 56-bandida nazarda tutilgan holatlар bundan mustasno».⁸

„QUYI TEGANA QURUVVCHI,, xususiy korxonasida asosiy vositalarning amortizatsiyasi bir maromli (to'g'ri chiziqli) usulda hisoblanadi. 2017- yilda 2024637.602 so'mga quyidagi asosiy vositalarga eskirish hisoblangan va bularga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari berilgan (6-ilova)

Debet: 2010 «asosiy ishlab chiqarish» (bevosita xarajatlar)

Kredit: 0220 «binolar, inshootlar va uzatkichlarning eskirishi»

Summa: 71039863

Debet: 2011 «asosiy ishlab chiqarish» (bilvosita xarajatlar)

Kredit: 0220 «binolar, inshootlar va uzatkichlarning eskirishi»

Summa: 208216.2

Debet: 2310 «yordamchi ishlab chiqarish»

⁸BXMS №5 «Asosiy vositalar».O'z.R. Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 23 –avgustda ro'yxatga olingan, №491

Kredit: 0220 «binolar, inshootlar va uzatkichlarning e skirishi»

Summa: 1255866.84

Debet: 2510 «umumishlab chiqarish xarajatlari»

Kredit: 0220 «binolar, inshootlar va uzatkichlarning eskirishi»

Summa: 9215485.8

Debet: 9420 «ma'muriy xarajatlar»

Kredit: 0220 «binolar, inshootlar va uzatkichlarning eskirishi»

Summa: 401594.4

Debet: 2010 «asosiy ishlab chiqarish» (bevosita xarajatlar)

Kredit: 0230«mashina va uskunalarining eskirishi»

Summa: 1921602

Debet: 2011 «asosiy ishlab chiqarish» (bilvosita xarajatlar)

Kredit: 0230«mashina va uskunalarining eskirishi»

Summa: 1196043.84

Debet: 2310 «yordamchi ishlab chiqarish»

Kredit: 0230«mashina va uskunalarining eskirishi»

Summa: 2576862.72

Debet: 9420 «ma'muriy xarajatlar»

Kredit: 0230«mashina va uskunalarining eskirishi»

Summa: 7456200

Debet: 2310 «yordamchi ishlab chiqarish»

Kredit: 0240 «mebel va ofis jihozlarining eskirishi»

Summa: 120000

Debet: 9420 «ma'muriy xarajatlar»

Kredit: 0240 «mebel va ofis jihozlarining eskirishi»

Summa: 13000

Debet: 2010 «asosiy ishlab chiqarish» (bevosita xarajatlar)

Kredit: 0250 «kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi»

Summa: 200000

Debet: 9420 «ma'muriy xarajatlar»

Kredit: 0250 «kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi»

Summa: 142000

Debet: 2310 «yordamchi ishlab chiqarish»

Kredit: 0260 «transport vositalarining eskirishi»

Summa: 3015079.2

Debet: 9420 «ma'muriy xarajatlar»

Kredit: 0290 «boshqa asosiy vositalarning eskirishi»

Summa: 4889880

Debet: 2310 «yordamchi ishlab chiqarish»

Kredit: 0291 «boshqa asosiy vositalarning eskirishi»

Summa: 2400000

2.3 «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarni tamirlash xarajatlari va ijara munosobatlarini yoritilishi

Asosiy vositalarni sotib olingandan so'ng uni saqlash va ishlatish bilan bog'liq bir qator xarajatlar vujudga kela boshlaydi. Masalan, ta'mirlash, ishlatish, rekonstruksiya va joylarini almashtirish bilan bog'liq xarajatlar shular jumlasidandir. Bu xarajatlarni hisobga olish balansni turkumlash va keyinchalik eskirish bo'yicha ajratmalarni hisoblashda ta'sir etadi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, xarid qilib olinganida baholangan boshlang'ich qiymatiga asosiy vositalarni haqiqiy xizmat muddati va unumdorligini yuqoriqoq darajada bo'lishini ta'minlovchi xarajatlar kapitallashtiriladi. Xarid qilinganidan keyingi paydo bo'lgan kapitallashtirilgan xarajatlar, foydalanishning ma'lum bir davridan keyin bahosizlanadi va bu davr ma'lum bir aktivlarning kutilayotgan xizmat muddatidan qisqa bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalarni foydalanish imkoniyatlarini va xarid qilib olinganida aniqlab olingan foydalanish davrini ta'minlash, minimal darajadagi saqlab turish va ta'mirlashlar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirib turishni

taqozo qiladi. Bu xarajatlar foydalanish muddatini xarid qilinganida belgilanganidan yuqoriqoq darajada uzaytira olmaydi, ular joriy hisoblanadi va paydo bo‘lgan davr xarajatlari moddasiga kiritiladi.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, asosiy vositalar halokat, sovuq-qonlik, bilgan holda suiste’mol qilish, o‘g‘rilik natijasida paydo bo‘lgan harajatlar zararlarga olib boriladi. Masalan, agar dastgohni o‘rnatish jarayonida ayrim muhim qismlarining sinishi yuz bersa, u holda ta’mirlash to‘lovleri xarajatlar moddasiga yoziladi. Ta’mirlashdan so‘ng bu inventar avval ega bo‘lgan qiymatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Bulardan tashqari, baxtsiz hodisa natijasida shikastlangan, sug‘urta qilingan mulkni qayta tiklash xarajatlari zararlar moddasiga kiritiladi. Bunday shikastlanishlarni tiklash, tabiiyki, inventarni foydalanish muddatini baxtsiz hodisadan oldingi darajadan yuqoriqoq darajada uzaytirmaydi. Agarda qayta ta’mirlashdan so‘ng uskunaning xizmat yoki foydalanish muddati uzaysa, xarajatlar foydali faoliyat muddatini uzayishining butun davriga kapitallash-tiriladi.

Asosiy vositalarni sotib olingandan keyin uni saqlab turish uchun xarajatlar qilinadi. Buxarajatlar to‘rt asosiy turkumga bo‘linadi:

1. Ishchi holatida saqlab turish va joriy ta’mirlash
2. Yaxshilash
3. Qo‘sishchalarkiritish
4. Qaytaqurishvatartibgasolish

1. Asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turish va joriy ta’mirlash xarajatlari.

Ishchi holatda saqlab turish xarajatlariga moylash, tozalash, tartibga solish, bo‘yashdan iborat bo‘lib, bularning hammasi uskunani ishchi holatida saqlab turishning ajralmas qismi hisoblanadi. Joriy ta’mirlash xarajatlari ehtiyyot qismlar sarflari, oldini olish va ta’mirlash ishlari xarajatlaridan iborat.

Bunday turdag'i ta'mirlashga zaruriyat tez-tez paydo bo'ladi va jiddiy xarajatlarni talab qiladi.

Ishlab chiqarish asosiy vositalari ta'mirlanganda:

Debet: 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2510 «Umumishlab chiqarish harajatlari» schyotlari

Kredit: Sarflangan materiallarga 1010-1090, hisoblangan ish haqiga 6710, boshqa korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarga 6990 schyotlar.

Savdo, ma'muriy maqsaddagi va boshqa asosiy vositalar ta'mirlanganda:

Debet: 9410 «Sotish xarajatlari», 9420 «Ma'muriy xarajatlar», 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotlarida

Kredit: Sarflangan materiallarga 1010-1090, hisoblangan ish haqiga 6710

2. Asosiy vositalarni yaxshilash (rekonstruksiya qilish) xarajatlari. Asosiy vositalarni rekonstruksiyasi deganda – ularni mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, mahsulotlar tannarxini pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ularni xizmat muddatini uzaytirish maqsadida amalga oshirilgan asosiy vositalar konstruksiyasiga kiritilgan o'zgartirishlar tushuniladi.

Rekonstruksiya uskunaning bosh komponentini mutlaqo yangi komponent bilan almashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Masalan, eski tunuka tomni yangisiga, olovga chidamlı cherepitsaga almashtirish, dastgohga yanada quvvatliroq dvigatelni o'rnatish, binoni elektr tizimini ancha yaxshilash. Ma'lumki, almashtirishlar asosiy vositaning oldingi standarti va sharoiti bo'yicha mos keladigan, lekin quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlari bo'yicha oldingisidan ustunroq bo'lgan uskunaga almashtirilishi kerak. Masalan, traktoring dvigateli shunga o'xshashiga almashtirilishi kerakki, natijada u keyinchalik traktorni xizmat muddatini yoki quvvatini (unumdorligini) oshishiga olib keladi.

**Asosiy vositalarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyaqilish
jarayonlari ikki xil usulda amalga oshiriladi:**

- Pudratusulida;
- Xujalikusulida.

Pudrat usulidagi pudratchi, ya’niish bajaruvchi va buyurtmachi o‘rtasida tuziladigan pudrat shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Xo‘jalik usulida kengaytirish, rekonstruksiya yoki modernizatsiya ishlari korxonaning o‘z kuchi bilan amalga oshiriladi. **11-jadval**

**Pudrat va xo‘jalik usulidagi kapital investitsiyalarning schyotlarda aks
ettirilishi:⁹**

№	Operatsiyaning mazmuni	Debet	Kredit	Asos
1. Xo‘jalik usulida				
1	Sarflangan materiallar qiymatiga	0810, 0850, 0890	1010-1090	Material hisoboti
2	O‘rnatilgan uskunalar	0810, 0850, 0890	0710-0720	O‘rnatishdalolat nomasi
3	Kapital qurilishdagi ishchilarga ish haqi	0810, 0850, 0890	6710	Tabel, naryad, vedomostlar
4	Hisoblangan ish haqidan ijtimoiy sug‘urta fondlariga ajratmalar	0810, 0850, 0890	6520	Hisob-kitob
5	Qurilishda ishlatilayotgan asosiy vositalarga hisoblangan eskirish	0810, 0850, 0890	0211-0290	Hisob-kitob
6	Qurilish bilan bog‘liq bo‘lgan yordamchi ishlab chiqarish xarajatlarining hisobdan chiqarilishi	0810, 0850, 0890	2310	Kalkulyasiya
7	Qurilishga xizmat ko‘rsatganligi uchun boshqa tashkilotlarga to‘lanadigan summaga	0810, 0850, 0890	6010, 6990	Schet-faktura
8	Yangi ob’ektlarni qurishga, asosiy vosita- larni kengaytirishga va rekonstruksiya	0110-0190	0810, 0850, 0890	Dalolatnoma

⁹Urazov K.B., Xdayberdiev N.U.Annayev. N.B.. «Moliyaviy hisob» fanidan o‘quv uslubiymajmua I-qisimSam ISI 2011. 134-bet.

	qilishga qilingan xarajatlarni asosiy vositalarga o'tkazish			
2. Pudratusulida				
1	Asosiy vositalarning qabul qilib olinishi	0820 0110-0190	6010 0820	SHartnoma, schet-faktura

3. *Qo'shimchalar kiritish.* Mavjud asosiy vositalarga qo'llanadigan uzaytirish, oshirish va kengaytirish ishlari bilan bog'lik harajatlar asosiy vositalarga qo'shimchalar kiritish harajatlari deb tavsiflanadi. Misol tariqasida, mavjud binoga qo'shimcha qanot yoki xonaning qurilishi. Qo'shimchalar kiritish kapital harajatlar hisoblanadi va asosiy vositalarning tannarxiga olib boriladi.

Ma'lumki, bir qator orxonalar ishlab chiqarish bino va inshootlarini atrof muhitning ifoslantirmaslik maqsadida maxsus qurilmalar bilan jihozlaydilar. Ba'zi hollarda bu qurilmalarining qiymati atrof muhitni ifoslantiruvchi dastgohlar qiymatidan ko'proq ham bo'ladi. Bunday hollarda bu asboblar qiymati alohida kapitallashtiriladi va asosiy vositalarga qo'shimchalar kiritish sifatida eskirish hisoblab boriladi.

4. *Qayta o'rnatish va tartibga solish.* Ma'lumki, asosiy vositalarning samaradorligini oshirish maqsadida, qayta o'rnatish maqsadida o'zgartirish va qayta qurish ishlari amalga oshiriladi. Agarda qayta qurishdan olinadigan manfaat joriy hisobot davriga taalluqli bo'lsa, u holda qilingan ishlar qiymati kapital harajatlar tarkibiga kiradi. Bunday harajatlar alohida aktiv, muddati uzaytirilgan bino yoki maxsus bino sifatida kapitallashtiriladi. Bu harajatlar qayta qurishdan foyda olish boshlangan davridan keyingi vaqt davomida eskirish hisoblab boriladi.

«QUYI TEGANA QURUVCHI» xususiy korxonasining hisob siyosatining 1.2.6. bandiga asosan ishlab chiqarishga doir asosiy vositalarni joriy ta'mirlash xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritiladi. Boshqaruv ahamiyatidagi asosiy vositalarni joriy ta'mirlash esa davr xarajatlariga olib boriladi.

III Bob. QUYI TEGANA QURUVCHI» XUSUSIY KORXONASIDA ASOSIY VOSITALAR AUDITINING METADALOGIK TARTIBI

3.1. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalar auditini rejasi va dasturini tuzish

“Quyi tegana quruvchi” XKda asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o’tkazishdan asosiy maqsad korxonaning moliyaviy hisobotining 1-shaklida yani “Buxgalteriya balansi”da keltirilgan asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligi, asosiy vositalarning harakati (asosiy vositalarning kirimi, asosiy vositalarga hisoblangan eskirish, asosiy vositalarning qayta baholanishi, asosiy vositalarning chiqib ketishi) to’g’ri yurutilganligi, qonun va qonun osti hujjatlariga mosligini tekshirish, tekshiruv natijalari bo’yicha byurtmachiga xulosa taqdim qilish va aniqlangan chetlanishlani tuzatish bo’yicha tegishlicha takliflar berishdan iborat. “Quyi tegana quruvchi” XKda asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o’tkazishda auditor oldiga quyidagicha vazifalar qo’yiladi:

- Korxonaning moliyaviy hisobotining birinchi shakli orqali asosiy vositalar qiymatini aniqlash;
- Aniqlangan axborotning realligini tekshirish (bu tekshiruv 19-son BHMSga muvofiq amalga oshiriladi);
- Korxonada asosiy vositalarning kirimini to’g’ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;
- Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish so’mmalarini to’g’ri amalga oshirilganligini tekshirish (korxona hisob siyosatida keltirilgan eskirish hisoblash usulidan foydalanilganligini tekshirish);

- Asosiy vositalarning chiqimi to'g'ri amalga oshirilganligini va to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirish;
- Tashkilotda asosiy vositalar harakati bo'yicha buxgalteriya yozuvlarini to'g'ri berilganligini tekshirish;
- Buxgalteriya yozuvini berilishiga asos bo'lувчи boshlang'ich xujjatlarini mavjudligini tekshirish;
- Amalga oshirilgan tekshiruv natijalarini umumlashtirish;
- Umumlashtirilgan natijalar bo'yicha tegishlicha xulosa taqdim etish;
- Aniqlangan chetlanishlarni tuzatish bo'yicha tegishlicha takliflar taqdim qilish.

“Quyi tegana quruvchi” XKda asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ketma-ketligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Dastlab byurtmachi va auditorlik tashkiloti o'rtasida shartnomaga tuzuladi. Tuzulgan shartnomada tamonlar haqida qisqacha malumot, o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi obekti, ko'rsatiladigan xizmat kelishuv bahosi va o'tkazish davri keltirilgan bo'ladi. Shunga asosan 3-son “Auditni rejalashtirish” nomli AFMSga va 6-son “Auditni xujjatlashtirish” nomli AFMSga muvofiq auditorlar tomonidan auditorlik rejasi va auditorlik dasturi tuzub olinadi. Auditorlik rejasi byurtmachi va auditorlik tashkilotining nomi, auditorlik tekshiruvini o'tkazish davri, auditorlik tekshiruvi guruhi rahbari, guruh azolari, auditorlik riski va muhimlik darajasi, bajariladigan ishlar ro'yxati va bajaruvchining nomi va shu kabi boshqa malumotlar. Auditorlik rejasingning namunaviy shakli quyidagicha.

12-jadval

**“Quyi tegana quruvchi” XKda asosiy vositalar auditining
REJASI**
(namunaviy shakl)

Tekshirilayotgan tashkilot: **“Quyi tegana quruvchi” XK**

Audit davri: 5 kun

Kishi/soatlar soni: 40.

Auditorlik guruhi rahbari: Xurramov. Z.

Auditorlik guruhi tarkibi: Xurramov. Z.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari darajasi: 5 %

Rejalashtirilayotgan auditorlik isboti darajasi: 95 %

<i>Nº</i>	<i>Rejalashtirilayotgan ish Turlari</i>	<i>O'tkazish davri</i>	<i>Bajaruvchi</i>	<i>Izohlar</i>
1	<i>Xo'jalik yurutuvchi subekt hisob siyosati bilan tanishish</i>	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	
2	<i>Tashkilotning asosiy vositalari bilan tanishib chiqish</i>	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	
3	<i>Tashkilotdagi asosiy vositalarning kirimini va chiqimini tekshirish</i>	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	
4	<i>Tashkilotdagi asosiy vositalarni eskirish hisoblanishi va qayta baholanishini tekshirish</i>	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	
5	<i>Auditor natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish</i>	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	

Auditorlik tashkiloti rahbari: Xurramov. Z.

_____ (imzo)

Auditorlik gurihi rahbari:

_____ (imzo) Xurramov. Z.

Tuzulgan auditorlik rejasi asosida auditorlik dasturi tuzuladi. Auditorlik dasturida auditoring ish hujjatlari hamda audit jarayonida qo'llaniladigan tekshirish usullari ifodalanadi. Biz asosiy vositalar audit bo'yicha auditorlik dasturini tuzdik. Auditorlik dasturiga asosan asosiy vositalar bo'yicha hisob-kitoblarning to'g'riligi asosliligi aniqlanadi.

13-jadval

“Quyi tegana quruvchi” XKda asosiy vositalar auditining

DASTURI

(namunaviy shakl)

Tekshirilayotgan tashkilot: “**Quyi tegana quruvchi**” XK

Audit davri: 5 kun

Kishi/soatlar soni: 40

Auditorlik guruhi rahbari: Xurramov. Z.

Auditorlik guruhi tarkibi: Xurramov. Z.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari darjasi: 5%

Rejalashtirilayotgan auditorlik isboti darjasi: 95 %

<i>Nº</i>	<i>Audit bo‘limlari № bo‘yicha auditorlik tadbirlari ro‘yxati</i>	<i>O‘tka zish davri</i>	<i>Bajaruvchilar</i>	<i>Auditorning ishchi xujjatlari</i>	<i>Tekshirish usuli</i>
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>
<i>1</i>	“Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning kirimini tekshirish	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	<i>Moliyaviy hisobotning 1 va 2-shakllari, moddiy jovabgar shaxsning hisobtlari, tegishli jurnal order va qaydnomalar, birlamchi xujjatlar</i>	Tanlanma
<i>2</i>	“Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning eskirish hisoblanishini tekshirish	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	<i>Moliyaviy hisobotning 1-shakli, jurnal-orderlar; Hisobkitob qaydnomalari, ish haqi kitobi</i>	<i>To‘liq</i>
<i>3</i>	“Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning qayta baholanishini tekshirish	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	<i>Moliyaviy hisobotning 1-shakli, jurnal-orderlar; Hisobkitob qaydnomalari</i>	<i>To‘liq va tanlanma</i>

4	“Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning chiqimini tekshirish	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	<i>Moliyaviy hisobotning 1 va 2- shakllari, Jurnal- orderlar; Hisob- kitob qaydnomalari</i>	<i>To ‘liq va tanlanma</i>
5	“Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning auditirlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish	<i>1 kun</i>	Xurramov. Z.	<i>Jurnal-orderlar; Hisob-kitob qaydnomalari</i>	<i>To ‘liq</i>

Auditorlik tashkiloti rahbari: Xurramov. Z.


_____ (imzo)

Auditorlik gurihi rahbari _____ (imzo) Xurramov. Z.

3.2. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarni auditorlik tekshuruvi natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibi

Auditorlik rejasi va dasturida bajariladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi auditorlar o‘ziga biriktirilgan tadbirlar yuzasidan audit qilishning taxminiy ketma-ketligini belgilab oladi va shunga asosan auditorlik tekshiruvini ma’lum tartibda amalga oshiradi. Amalga oshirilgan auditorlik tekshiruvini “Auditorlik hisoboti” nomli 80-son AFMS ga va “Auditorlik xulosasi” nomli 70-son AFMS larga muvofiq rasmiylashtiradi, yani, dastlab auditorlik hisoboti tuzuladi va auditorlik hisoboti asosida auditorlik xulosasi beriladi.

Asosiy vositalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish ketma-ketligi quyidagi chizmada kelnbrilgan:



3-chizma. Asosiy vositalarni auditorlik tekshuruvidan o'tkazish ketma ketligi.

“Quyi tegana quruvchi” XKda auditor auditorlik tekshiruvini amalga oshirish davomida auditorlik hisobotini tuzib boradi. Hisobotda asosan quyidagi malumotlar keltirilgan bo'ladi. “Quyi tegana quruvchi” XKda 2017-yil 1-yanvar holatiga asosiy vositalarning moliyaviy hisobotning birinchi

shakli “Buxgalteriya balansi”ning quyidagi satrlarida quyidagicha malumotlar keltirilgan. (3-ilova)

010-satr - “Asosiy vositalarning boshlang’ich qiymati” - 385 854 600 so’m;

011-satr - “Jamlangan eskirish summasi” - 169 150 000 so’m;

012-satr - “Asosiy vositalarning qoldiq qiymati” - 216 705 000 so’m.

Moliyaviy hisobotning birinchi shakli “Buxgalteriya balansini” o’rganish natijasida yana shu narsa malum bo’ldiki tashkilot balansining 090-satri “O’rnataladigan asbob uskunalar” va 100-satri “Kapital qo’yilmalar” satrlarida hech qanday so’mma mavjud emasliginiko’rdik. Bu esa tashkilotning 2017-yil 1-yanvar holatiga hech qanday o’rnatilmagan asbob uskunasi, tugallanmagan qurulishi va sotib olingan ammo asosiy vosta sifatida kirim qilinmagan asosiy vositasi mavjud emasligidan dalolat bermoqda. Korxonada haqiqatda balansda ko’rsatilgan so’mmaga teng asosiy vosita mavjudligini tekshirish, berilgan so’mmalarning realligini tekshirish maqsadida korxonada yurutiladigan bosh kitobga, jurnal order va qaydnomalarga etiborni qaratamiz. Natijalarni solishtirish shuni ko’rsatdiki joriy hisob malumotlari bilan balans malumotlari mosligi aniqlandi. Bundan tashqari bu raqamlarning haqqoniyagini tekshirish maqsadida auditor inventarizatsiya o’tkazdi. Inventarizatsiya natijasi inventarizatsiya dalolatnonmasi bilan rasmiylashtirildi. O’tkazilgan inventarizatsiya natijasi va joriy hisob malumotlari bir-biriga mosligi aniqlandi. Asosiy vositalarni qayta baholash hisob siyosatida keltirilgan kabi har yili hisobot yili boshida bir martadan qayta baholanib kelingan. Korxona hisob siyosatida barcha asosiy vositalarga eskirish hisoblashni to’g’ri chiziqli (bir moromli) usuldan foydalanishligi keltirib o’tilgan. Ushbudan kelib chiqgan holda tashkilotning barcha asosiy vositalariga eskirish bir moromli usulda hisoblangan. Ushbu auditorlik hisobotidan kelib chiqib auditor quyidagicha auditorlik xulosasini taqdim qiladi.

Auditorlik firmasi auditorlik tekshiruvini 5 kun davomida olib bordi va korxona uchun tegishlicha auditorlik xulosasini taqdim qildi. Ushbu xulosaning mazmuni quyidagicha.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun javobgarlik ushbu auditorlik tekshiruvlar davrida xo'jalik yurutuvchi subekt rahbariyati javobgar. Auditorlik tashkiloti o'zi taqdim etgan moliyaviy hisobotlar to'g'risida berilgan o'zining auditorlik xulosasi uchun javobgardir.

Biz auditorlik tekshiruvlarini AFMS ga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar asosida axborotdan foydalanuvchilar uchun to'g'ri va ishonchli moliyaviy hisobotni taqdim etilganligini va qonun doirasida ish faoliyati olib borilganligini ifodalovchi xujjat bo'lib hisoblanadi. Bizning fikrimizcha moliyaviy axvolini auditorlik tahlili natijasida yetarlicha xulosa berishimizga asos bo'ladi. Bizning fikrimizcha tashkilot tamonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobot va konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobotlari korxonani moliyaviy holatini va xo'jalik yurutuvchi subekt tamonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga mos.

3.3. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida asosiy vositalarga hisoblangan eskirishi auditining tahlili va auditda tahlil usullaridan foydalanish

Tashkilotda asosiy vositalarni eskirishini auditorlik tekshiruvini amalgaga oshirish davomida asosiy vositalarga eskirish o'z vaqtida va hisob siyosatida keltirilgan yoki belgilangan eskirish usullaridan foydalanilganligini tekshiradi. Bundan tashqari tashkilotda tahlil usullaridan ham bevosita foydalanadi. Tashkilotdagi asosiy vositalarning holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar bo'lib hisoblanadi.

1. Asosiy vositalarni eskirish koeffetsenti;
2. Asosiy vositalarning yangilanish koeffetsenti;
3. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffetsenti.

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalarning eskirish koeffetsenti quyidagicha aniqlanadi (3-ilova)

$$As. v_{es.k} = \frac{jamlangan eskirish}{boshlanchiqiymat} * 100 = \frac{169\ 150\ 000}{385\ 854\ 600} * 100 = 43.8$$

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalar samaradorligini omilli tahlilini amalga oshirishda tahlilda qo'llaniladigan usullardan bevosita foydalangan holda amalga oshiramiz. Dastlab tashkilotning asosiy vositalarini 2016-yil 31-dekabr holatiga aniqlab olamiz.

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir.

1. Asosiy vositalarning rentabelligi;
2. Asosiy vositalarning daromadliligi;
3. Asosiy vositalarning natijaviylici.

Asosiy vositalarning rentabelligi 2015-yil va 2016-yil 31-dekabr holatiga quyidagicha.

$$R_{2015} = \frac{foyda}{asosiy vositalar qiyomi} * 100 = \frac{67153000}{131275200} * 100 = 51.2$$

$$R_{2016} = \frac{foyda}{asosiy vositalar qiyomi} * 100 = \frac{491\ 73000}{120681000} * 100 = 40.7$$

Asosiy vositalarning daromadlilik ko'rsatkichi 2014-yil va 2015-yil 31-dekabr holatiga quyidagicha.

$$D_{2015} = \frac{daromad}{asosiy vositalar qiyomi} * 100 = \frac{1214507000}{131275200} * 100 = 925.2$$

$$D_{2016} = \frac{daromad}{asosiy vositalar qiyomi} * 100 = \frac{2869555000}{120681000} * 100 = 2377.8$$

Asosiy vositalarning natijaviylik ko'rsatkichi 2014-yil va 2015-yil 31-dekabr holatiga quyidagicha.

$$N_{2015} = \frac{\text{korxona tavar aboroti}}{\text{asosiy vositalar qiymati}} * 100 = \frac{1214507000}{131275200} * 100 = 925.2$$

$$N_{2016} = \frac{\text{korxona tavar aboroti}}{\text{asosiy vositalar qiymati}} * 100 = \frac{2869555000}{120681000} * 100 = 2377.8$$

“Quyi Tegana Quruvchi” xususiy korxonasida faqatgina mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar mavjudligi sababli bizda asosiy vositalarning natijaviylik ko’rsatkichi bilan asosiy vositalarning daromadlilik ko’rsatkichi bir-biriga teng chiqmoqda. Ana endi asosiy vositalarning har bir ko’rsatkichini o’zgarishiga omillarning tasirini ko’rib chiqamiz.

Asosiy vositalarning rentabelligi ko’rsatkichi tahlili; dastlab 2016-yil va 2015-yil o’rtasidagi farq topiladi. Bizning vazifamiz manashu farqning chiqishiga har bir omilning tasirini aniqlashdan iboratdir. Umumiy farq quyidagiga teng:

$$R_{2016}-R_{2015} = \frac{foyda_{2015}}{As.vos_{2015}} * 100 - \frac{foyda_{2014}}{As.vos_{2014}} = \frac{49143000}{120681000} * 100 - \frac{67153000}{131275200} * 100 = \\ = 40.7 - 51.2 = -10.5$$

Ko’rib turganingizdek asosiy vositalarning foydalilik ko’rsatkichi susayib ketgan yani 10.5 ga kamaygan. Natijaning bunday o’zgarishiga qaysi omil qay darajada tasir qilganligini aniqlashda qayta hisoblash usulidan foydalanamiz. Birinchi navbatda natijani birinchi omil bo’yicha qayta hisoblab olamiz.

$$R_{q.h} = \frac{foyda_{2016}}{As.vos_{2015}} * 100 = \frac{49143000}{120684000} * 100 = 40.7$$

So’ngra natijaga birinchi omilni tasirini aniqlaymiz.


$$\Delta R_1 = R_{q.h} - R_{2015} = \frac{foyda_{2016}}{As. vos_{2015}} * 100 - \frac{foyda_{2015}}{As. vos_{2015}} * 100 = 40.7 - 51.2 \\ = -10.5$$

So'ngra natijaga ikkinchi omilning tasirini aniqlaymiz.

$$\Delta R_2 = R_{2015} - R_{q.h} = \frac{foyda_{2016}}{As. vos_{2016}} * 100 - \frac{foyda_{2016}}{As. vos_{2015}} * 100 = 40.7 - 40.7 = 0$$

Aniqroq tasavvurga ega bo'lishingiz uchun quyidagi diogrammaga etiboringizni qaratamiz.

3-diagramma



Aniqlangan natijalardan ushbu aniq bo'ldiki asosiy vositalarning rentabellik ko'rsatkichining pasayib ketishiga 2016-yildagi foydaning kamayib ketishi sabab ekanligini ko'rishimiz mumkin. Albatta ushbu natijadan xulosa chiqargan holda foydani ko'paytirish chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Asosiy vositalarning daromadliligi ko'rsatkichi tahlili; Bu ko'rsatkichni tahlil qilishda ham dastlab 2016-yil va 2015-yil o'rtasidagi farq topiladi. Bizning vazifamiz manashu farqning chiqishiga har bir omilning tasirini aniqlashdan iboratdir. Umumiy farq quyidagiga teng:

$$D_{2016} - D_{2015} = \frac{daromad_{2016}}{As.vos_{2016}} * 100 - \frac{daromad_{2015}}{As.vos_{2015}} = \frac{2869555000}{120681000} * 100 - \frac{1214507000}{131275200} * 100 = \\ = 2377.7 - 925.2 = 1452.5$$

Ko'rib turganingizdek asosiy vositalarning daromadlilik ko'rsatkichi 1452.5 ga o'sgan. Natijaning bunday o'zgarishiga qaysi omil qay darajada tasir qilganligini aniqlashda qayta hisoblash usulidan foydalanamiz. Birinchi navbatda natijani birinchi omil bo'yicha qayta hisoblab olamiz.

$$D_{q.h} = \frac{daromad_{2016}}{As.vos_{2015}} * 100 = \frac{2869555000}{131275200} * 100 = 2185.9$$

So'ngra natijaga birinchi omilni tasirini aniqlaymiz.

$$\Delta D_1 = D_{q.h} - D_{2015} = \frac{daromad_{2016}}{As.vos_{2015}} * 100 - \frac{daromad_{2015}}{As.vos_{2015}} * 100 = \\ = 2185.9 - 925.2 = 1260.7$$

So'ngra natijaga ikkinchi omilning tasirini aniqlaymiz.

$$\Delta D_2 = D_{2016} - D_{q.h} = \frac{daromad_{2016}}{As.vos_{2016}} * 100 - \frac{daromad_{2016}}{As.vos_{2015}} * 100 = \\ = 2377.7 - 2185.9 = 191.8$$

Natijaga omillarning tasirini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish uchun omillar tasiri qo'shib chiqiladi va u umumiyl farqga tengdir.

$$1260.7 + 191.8 = 1452.5$$

Asosiy vositalarning natijaviyligi ko'rsatkichi tahlili; Bu ko'rsatkichni tahlil qilishda ham dastlab 2016-yil va 2015-yil o'rtasidagi farq topiladi. Bizning vazifamiz manashu farqning chiqishiga har bir omilning tasirini aniqlashdan iboratdir.

Umumiyl farq quyidagiga teng:

$$N_{2016} - N_{2015} = \frac{\text{tavar aboroti}_{2016}}{\text{As. vos}_{2016}} * 100 - \frac{\text{tavar abaroti}_{2015}}{\text{As. vos}_{2015}} = \frac{2869555000}{120681000} * 100 - \frac{1214507000}{131275200} * 100 = \\ = 2377.7 - 925.2 = 1452.5$$

Ko'rib turganingizdek asosiy vositalarning natijaviylik ko'rsatkichi 1452.5 ga o'sgan. Natijaning bunday o'zgarishiga qaysi omil qay darajada tasir qilganligini aniqlashda qayta hisoblash usulidan foydalanamiz. Birinchi navbatda natijani birinchi omil bo'yicha qayta hisoblab olamiz.

$$N_{q.h} = \frac{\text{tavar abaroti}_{2016}}{\text{As. vos}_{2015}} * 100 = \frac{2869555000}{131275200} * 100 = 2185.9$$

So'ngra natijaga birinchi omilni tasirini aniqlaymiz.

$$\Delta N_1 = N_{q.h} - N_{2015} = \frac{\text{tavar aboroti}_{2016}}{\text{As. vos}_{2015}} * 100 - \frac{\text{tavar abaroti}_{2015}}{\text{As. vos}_{2015}} * 100 = \\ = 2185.9 - 925.2 = 1260.7$$

So'ngra natijaga ikkinchi omilning tasirini aniqlaymiz.

$$\Delta N_2 = N_{2016} - N_{q.h} = \frac{\text{tavar abaroti}_{2016}}{\text{As.vos}_{2016}} * 100 - \frac{\text{tavar abaroti}_{2016}}{\text{As.vos}_{2015}} * 100 = \\ = 2377.7 - 2185.9 = 191.8$$

Natijaga omillarning tasirini to'g'ri hisoblanganligini tekshirish uchun omillar tasiri qo'shib chiqiladi va u umumiyl farqga tengdir.

$$1260.7 + 191.8 = 1452.5$$

Olingen natijadan shunday xulosa qilishimiz mumkinki tashkilotning 2016-yilgi tavar abaroti o'sganligi va asosiy vositalar qiymatining kamayganligi natijaviylik ko'rsatkichining ijobiy chiqishiga sabab bo'ldi.

3.4. «Quyi Tegana Quruvchi» xususiy korxonasida hayot faoliyati xavfsizligi

Qurilish tashkilotlarida xavfsizlikni ta'minlash va ish sharoitini yaxshilash ma'muriyatning asosiy vazifasi sifatida mehnat qonunlari, kodeksiga yozib qo'yilgan. Ushu me'yoriy hujjatlarga asosan „Quyi Tegana quruvchi”xususiy korxonasida ham xavfsizlikni ta'minlash borasida etarli ishlar qilingan. Shu bilan birga, korxonada mehnat sharoiti ham respublikamizdagi qonunchilikka asosan tashkil etilgan.

Ma'muriyat tarkibiga rahbar xodimlar, ya'ni qurilish tashkilotlarida tashkilotchilik, ma'muriy-xo'jalik ishlarini amalga oshiruvchi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qiluvchi, ishlab chiqarishda mehnat qilayotgan kishilarni boshqaruvchi, moddiy mablag'larni taqsimot bilan ishlatalish va uni nazorat qilish ishlarini olib boruvchi shaxslar kiritiladi.

Ma'muriyat xodimlariga qo'yiladigan asosiy talab, ular davlat siyosatini yaxshi tushunishlari va uni amalga oshirishga harakat qilishlari, davlat va xalq

manfaatlarini tushunib amalga oshirishlari, mehnat sharoiti tartibini saqlay bilishlari, ishchilarni mehnat intizomini saqlash va ishga rag'batlantirish, ish unumini oshirishi va darajasini bir necha o'n yil oldindan ko'ra biluvchi shaxs bo'lishlari kerak.

Ma'muriyat zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar asosan ishchilar bilan ma'muriyat o'rtasida tuziladigan mehnat bitimidan kelib chiqadi. Bu mehnat bitimini tuzish majburiyati O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi bilan belgilangan. Bu qonuniyat sifatida quyidagicha taqlid qilinadi. Ishchi ma'lum mutaxassislik bo'yicha belgilangan ishni korxona ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan holda bajarish, ma'muriyat esa mehnat qilish qonuniyatlariga asosan va jamoat bitimida ko'zda tutilgan ma'lum miqdordagi majburiyatlar mundarijasini o'z zimmasiga oladi.

Har bir ishchi, xizmatchi uchun ish mutaxassisligi va malakasiga qarab ma'lum mashina, stanok va boshqalardan iborat ish joyi tashkil qilish, sog'lom va xavfsiz ish sharoitini tashkil qilish, sifatli ish qurollari bilan ta'minlash, qurlilish va mehnat intizomini, har taraflama mustahkamlash, ish sharotini kundan-kunga yaxshilab borishni ta'minlashga qaratilgan texnik jihozlar o'rnatish, shuningdek mehnatni muhofaza qilishning nomenklatura chora-tadbirlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari, rahbar xodimlarga xizmat vazifalari ham yuklanadi. Bu vazifalar boshqarishi lozim bo'lgan lavozimi taqozo qiladigan tavsiyanomada belgilangan bo'ladi.

Mehnat sharoiti zararli va xavfli ishlab chiqarishlarda, shuningdek, o'ta noxush haroratlari yoki ifloslanishlar bilan bog'liq sharoitlarda bajariladigan ishlarda mehnat qiluvchilarga davlat boshqaruvi idoralari belgilagan me'yorlarda maxsus kiyim, poyabzal va boshqa maxsus himoya vositalari, yuvish va dizenfeksiyalash vositalari, sut yoki unga tenglashadigan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, parhez ovqat bepul beriladi.

Korxonada mehnatning sog‘lom va xavfsiz sharoitlarini ta’minlash yuzasidan ma’muriyat bilan xodimlarning o‘zaro majburiyatlari jamoa shartnomasi yoki bitimida ko‘zda tutiladi.

Vazirliklar, idoralar, konsernlar, assotsiatsiyalar, boshqa xo‘jalik organlari kasaba uyushmalari Markaziy (Respublika) qo‘mitasi bilan kelishib o‘zlar tasdiqlaydigan nizomga muvofiq mehnat muhofazasi ishlarini muvofiqlashtirib boradilar.

Xodimlar soni 50 nafar va undan oshadigan korxonalarda maxsus tayyorgarlikka ega shaxslar orasidan mehnatni muhofaza qilish xizmatlari tuziladi (lavozimlar joriy etiladi), 50 va undan ziyod transport vositalariga ega bo‘lgan korxonalarda esa bundan tashqari, yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari tuziladi (lavozimlar joriy etiladi). Xodimlar soni va transport vositalari miqdori kamroq korxonalarda mehnatni muhofaza qilish xizmatining vazifalarini bajarish rahbarlardan birining zimmasiga yuklanadi.

Mehnatni muhofaza qilish va yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishilgan nizomlar asosida ishlaydi va o‘z maqomiga ko‘ra korxonaning asosiy xizmatlariga tenglashtiriladi hamda uning rahbariga bo‘ysunadi.

Mehnatni muhofaza qilish xizmatlarining mutaxassislari barcha xodimlar mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me’yorlariga riosa etishlarini nazorat qilish, tarmoq bo‘limmalari rahbarlariga aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish haqida bajarilishi shart bo‘lgan ko‘rsatmalar berish, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarni buzayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish haqidagi korxonalarning rahbarlariga taqdimnomalar kiritish huquqiga egadir.

Mehnatni muhofaza qilish va yo‘l harakati xavfsizligi xizmatlari korxona faoliyati to‘xtatilgan taqdirdagina tugatiladi.

Ba’zi bir rahbar shaxslarning, ishchilarning o‘z ishiga sovuqqonlik va loqaydlik bilan qarashi natijasida mehnatni muhofaza qilish tartib-qoidalari buzilib,

baxtsiz hodisa ro'y beradi. Baxtsiz hodisaning og'ir, engilligi va oqibatini hisobga olib to'rt xil javobgarlik chora-tadbirlari belgilangan.

Intizom javobgarligi Har bir sanoat korxonasi o'z ichki tartib-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu tartib-qoidalarning barchasi sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlash, jarayonlarni normada bajarishga qaratilgan.

Talablarni bajarmaslik baxtsiz hodisalarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishchi-xizmatchilarning tartib-qoidalarga amal qilmasligi ish rejimining buzilishiga, kassalik, baxtsiz hodisa, zaharlanish va boshqa hodisalarning sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ular uchun intizom javobgarligi ta'sis etilgan.

Rahbar xodimlar jamoa bitimida ko'rsatilgan talablarni, yuqori tashkilot buyruqlarini bajarmaganliklari va asossan xavfsizlik texnikasi, sanoat gigiena-sanitariyasi talab-qoidalalariga amal qilinmaganligi uchun javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy javobgarlik qo'yidagi uch turda belgilanishi mumkin:

1. Axloqiy harakterdagi javobgarlik (ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar).
2. Mablag' va pul undirish, bunda jarima va musodara qilish usuli qo'llaniladi.
3. Tartib buzuvchining shaxsiga taaluqli bo'lgan javobgarlik (ahloq tuzatish ishlari, ma'muriy – qamoq jazosi, vazifasidan chetlatish).

Mehnat xavfsizligi qoida va normalarini buzgan ishchi va xizmatchilarga ma'muriy javobgarlik tartibida ogohlantirish, jamoat tartibidagi choralar va ma'lum miqdorda jarima to'lash belgilanadi. Jarima va ogohlantirish buysunish tartibida rahbar xodimlar tomonidan emas, balki mehnatni muhofaza qilishning davlat nazorat organlari yoki shahar va tuman deputatlari kengashi ijroiya qo'mitalari tomonidan tashkil qilingan komissiyalarning qarori bilan belgilanadi.

Jinoiy javobgarlik. Mehnatni muhofaza qilish qoidalaring qo'pol buzilishi natijasida og'ir jarohatlanish yoki bir necha kishining og'ir jarohatlanish sodir

bo‘lsa yoki baxtsiz hodisa o‘lim bilan tugasa, qoidani buzishda ayblangan rahbar hodim jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoiy javobgarlik rahbar xodimni vazifasidan chetlatish yoki ma’lum muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilanadi.

Moddiy javobgarlik. Bu ishchi va xizmatchilar ishlayotgan korxonada uning aybi bilan korxonaga keltirilgan moddiy zararni qoplashdir. Mehnatni muhofaza qilish qoida va normalarining ishchi va xizmatchi tomonidan buzilishi natijasida sanoat korxonasi moddiy zarar ko‘rsa, shu zararning bir qismini yoki hammasini aybdor shaxs tomonidan to‘lanishi moddiy javobgarlik chorasisiga kiradi. Moddiy javobgarlik chegaralangan va to‘liq javobgarlik tartibida belgilanishi mumkin.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va qurilish tashkilotlarida kasb kasalliklari va jarohatlanishga olib keladigan omillarni butunlay yo‘qotish sanoat korxonalari rahbarlari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Yo‘riqnomalarni asosan to‘rt guruxga bo‘lib qarash mumkin:

- 1) kirish yo‘riqnomasi;
- 2) ish joyidagi yo‘riqnomasi;
- 3) vaqtি-vaqtি bilan o‘tkaziladigan yo‘riqnomasi
- 4) rejadan tashqari yo‘riqnomasi.

Qurilish tashkilotlarining hammasida ish kategoriysi va xavfli darajasi qanday bo‘lishiga qaramay barcha ishchi va xizmatchilar ish davri, mutaxassisligi va malakasidan qat’iy nazar yo‘riqnomadan o‘tishlari shart. Shu jumladan, „Quyi Tegana quruvchi”xususiy koroxnasida ham barcha ishchi va xizmatchilar yo‘riqnomadan o‘tkaziladi.

Kirish yo‘riqnomasi. Ishga yangi kirayotganlar uchun o‘tkaziladi. Bu yo‘riqnomaning asosiy maqsadi – ishga kirayotganlarning mehnatini muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va qurilish to‘g‘risida ma’lumot berish, uni qurilish obyetlari tartib qoidalardan xabardor qilishdir. Kirish yo‘riqnomasi yaxshi jihozlangan va ko‘rgazmali qurollar o‘rnatilgan mehnatni muhofaza qilish kabinetida, xavfsizlik texnikasi injeneri tomonidan o‘tkaziladi.

Kirish yo‘riqnomai vaqtida ishga kirayotgan ishchi quyidagi holatlar bilan tanishtirilishi shart: O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilish qonuniyatlari asoslari, qurilish tashkilotida yo‘lga qo‘yilgan ichki tartib qoidalari, korxonaning xavfsizlik texnikasining umumiy talablari, ish joyini tashkil qilish, ishchiga topshirilgan mashina va mexanizmlarni saromjon va ozoda saqlash qoidalari, maxsus ish sharoiti tashkil qilingan ayrim bo‘limlar bilan tanishtirish, baxtsiz hodisalarini oldini olish qoidalarini tushuntirish kerak.

Mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va qurilishn qoida, norma va instruksiyalarining buzilishi natijasida vujudga kelgan baxtsiz hodisalar haqida ma’lumotlar berilishi kerak. Baxtsiz hodisa ro‘y berganda o‘zini qanday tutish haqida tushuncha beriladi, alkogolli ichimliklar baxtsiz hodisaga olib kelishi haqida aytib o‘tilishi shart. Kiyim bosh, maxsus oyoq kiyimi va shaxsiy muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalari, sanitar-gigiena sharoitlariga e’tibor berish, sanitar maishiy xonalardan foydalanish tartibi, baxtsiz hodisa ro‘y berganda, baxtsiz hodisaga uchragan kishiga vrach kelgunga qadar yordam ko‘rsatish usullari haqida ma’lumot beriladi.

Ish joyidagi yo‘riqnomasi. Ishga yangi kirgan, bir ishdan ikkinchi ishga o‘tkazilgan, bir mashinadan ikkinchi mashinaga, bir uchastkadan ikkinchi uchastkaga o‘tkazilgan, agar bu o‘tkazishlar vaqtincha bo‘lishidan qat’iy nazar ish joyidagi yo‘riqnomadan o‘tkazilishi shart.

Ish joyidagi yo‘riqnomada qo‘yidagilar tushuntirilishi kerak: ishchining doimiy ishlash joyi, sexdagi texnologik jarayon va xavfli uchastkalar, ishchining doimiy ishlashi zarur bo‘lgan mashinaning yoki stanokning tuzilishi, mashinaning xavfli joylari, muhofaza qurilmalari va boshqa saqlovchi vositalar, ularning vazifasi va ulardan foydalanish qoidalari. Ishga tayyorlanish qoidalari, stanokning sozlanganligini tekshirish, yurgizish o‘chirish asboblarining ishlashi, stanokning erga ulanganligi, yordamchi va asosiy qurollarning mavjudligi. Shaxsiy muhofaza aslahalarining vazifalari va ulardan foydalanish qoidalari, ish kiyimlari, maxsus kiyimlar, oyoq kiyimlari va bosh kiyimlarga qo‘yiladigan talablar.

Ish joyidagi yo‘riqnomani master yoki brigadir o‘tkazadi.

Vaqti-vaqt bilan o‘tkaziladigan yo‘riqnomasi. Bu yo‘riqnomani o‘tkazish vaqtini fabrika, zavod kasaba uyushmasi komitetlari bilan kelishgan holda, sanoat korxonasining rahbari belgilaydi. Bu yo‘riqnomaning mazmuni ish joyidagi yo‘riqnomasi mazmuni bilan bir xil. Yo‘riqnomasi kirish yo‘riqnomasi singari hamma ishchilar ish staji, malakasi, razrayadidan qat’iy nazar o‘tkazilishi shart.

Rejadan tashqari yo‘riqnomasi. Bu yo‘riqnomasi texnologik jarayonning o‘zgarishi, yangi mashina va stanoklar kiritilishi va yangi materiallardan foydalanish natijasida ish sharoitining o‘zgarishi sababli ishchilarining xavfsizligini saqlash uchun bilimlari etishmasligi sezilganda o‘tkazilishi mumkin.


Shu qurilish korxonasiga o‘xshash korxonada avariya sababli baxtsiz hodisalar ro‘y berganligi haqida xabar eshitilgandan keyin ham, rejadan tashqari yo‘riqnomasi o‘tkaziladi.

Kundalik yo‘riqnomasi. Naryad-dopusk bilan bajariladigan xavfli ishlar uchun ish boshlashdan oldin o‘tkaziladi. Bu yo‘riqnomasi o‘tkazilganligi haqidagi ma’lumot naryad-dopuskka yozib qo‘yiladi.

Yong‘in xavfsizligi va uni o‘chirish; Yonuvchi modda bilan havodagi kislorodning o‘zaro ta’siri natijasida juda tez kechuvchi va ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga yonish deyiladi. Ko‘p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yong‘in hosil bo‘lishi va davom etishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda vazifasini havodagi kislorod o‘tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho‘g‘langan narsa) mavjud bo‘lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislorod miqdori 15%dan yuqori bo‘lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past konsentratsiyada esa yonish sodir bo‘lmaydi. Bundan tashqari, oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o‘tashi mumkin.

Xavfliligi bo'yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: yonmaydigan, yonish yoki yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar.

O't o'chirish vositalari asosan uch turga bo'linadi:



4-chizma. O't o'chirish vositalarining turlari

Suv o'tni o'chirishda eng keng tarqalgan moddadir. O'zining quyidagi xususiyatlari tufayli o'tni o'chirishda eng afzal hisoblanadi. Issiqlik sig'imi katta, yonayotgan yuzaga tushganda uning issiqligini yutib oladi. Yuqori haroratlari yuzalarga tushgan suv tezda bug'lanadi. Bug'lanish natijasida uning hajmi 1700 marta ortadi va vaqtincha yonayotgan yuzani qamrab olib, havodagi kislorod miqdorini kamaytiradi. Suvning yuzalarini ho'llash xususiyati yong'inning tarqalmasligida katta rol o'ynaydi. Uning sirt tarangligi kichik ($0,073 \text{ n/m}$) bo'lganligi uchun yonayotgan moddalarning tirqish va teshiklariga tezda kirib, ularni sovitadi.

Paxta tolasi yonganda suv bilan o'chirish samara bermaydi. Yonayotgan paxta tolalarini suv to'la hovuzga tashlab, bir haftadan so'ng olingach ham tutay boshlagan hollari kuzatilgan. Buning sababi, suvning sirt tarangligi kichik bo'lishiga qaramay juda kichik tirqishlarga, masalan, paxta tolasi, paxta changi yuzalaridagi tirqishlarga kira olmaydi. Ularning atrofi suv bilan qoplangan

bo‘lishiga qaramay, tolaning ichki qismi cho‘g‘lanishda davom etaveradi. Shuning uchun paxta yonganda uni o‘chirish uchun sirt tarangligini kamaytirish maqsadida ho‘lllovchi moddalar qo‘shiladi. Bu tadbir suv sarfini 2-2,5 marta va o‘t o‘chirish vaqtini 20-30 %ga kamaytiradi. Keng tarqalgan OP-1 ho‘lllovchi moddasidan suv og‘irligiga ko‘ra 3,5-4 miqdor yoki «nekal» HB ho‘lllovchisi 0,7-0,8 miqdor qo‘shiladi.

So‘nggi yillarda suv neft mahsulotlarini ham o‘chirishda ishlatilmoqda. Yong‘in bo‘layotgan yuzalarga u mayda zarrachalar holida sepiladi. Bu mayda (0,1-0,5 mm kattalikdagi) tomchilar tezda bug‘lanadi va bug‘lanayotgan suyuqlik yuzasini qamrab olib kislorodni o‘tkazmaydi. Shuningdek, suv oxirgi paytlarda o‘t o‘chirishda keng qo‘llanilayotgan havo-mexaniq ko‘pik hosil qilishda ham ishlatiladi.

O‘t o‘chirishda suvning salbiy xususiyatlaridan biri elektr tokini o‘tkazuvchanligidir. Bu kuchlanish ostida bo‘lgan uskunalarni o‘chirish imkoniyatini bermaydi. Bundan tashqari, suv ayrim moddalar (kaliy, natriy) bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib parchalanadi. Parchalanish natijasida ajralib chiqadigan vodorod portlashi mumkin, kislorod esa yonishni kuchaytiradi. SHuningdek, suv bilan kalsiy karbidini ham o‘chirib bo‘lmaydi, chunki unga suv tekkanda yonuvchi gaz – atsetilin ajralib chiqadi.

Ko‘pik yonayotgan yuzaga tushgach, uni qoplab olib, kislorod kirishidan to‘sadi va ajralib chiqayotgan suyuqlik yonayotgan yuzani sovitadi. Ko‘pik asosan qattiq moddalar va yonuvchan suyuqliklarni o‘chirishda ishlatiladi. U paydo bo‘lishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: ko‘pik hosil qiluvchi qorishmani havo oqimi bilan mexaniq aralashtiruv orqali olinadigan havomexaniq va ishqor eritmasi bilan kislotaning aralashishi natijasida paydo bo‘ladigan kimyoviy ko‘pik.


Ma’lumki, yong‘in paytida yonayotgan yuzalarni qoplash uchun ko‘plab miqdorda ko‘pik hosil qilish kerak bo‘ladi. Buning uchun ko‘pik hosil qiluvchi modda (penoobrazovatel)larni kuchli bosimdagи suv yoki havo bilan aralashtiriladi. Bu jarayon maxsus uzluksiz ishlovchi apparatlar – ko‘pik generatorlari yordamida

amalga oshiriladi. Ko‘pik hosil qiluvchi moddalar kukun holida bo‘lib, odatda biron-bir kislotaning (ko‘pincha oltingugurt kislotasining) tuzidan va ishqoriy qismi esa natriy bikarbonatning aralashmasidan tashkil topadi.

Ko‘pik generatorlari ikki turli bo‘lib (PG-50M va PG-100), yonuvchi hamda engil alangalanuvchan suyuqliklarni o‘chirishda ishlatiladi va faqat o‘lchamlari bilan farqlanadi.

Hozirgi paytda ko‘pik hosil qilish unumдорligи katta bo‘lgan ko‘pik generatorlari (GPS-200, GPS-600 va GPS-2000) qo‘llanilmoqda. 1-rasmda GPS-200 ko‘pik generatorining sxemasi ko‘rsatilgan.

1-metall to‘r; 2-qobiq; 3-konfuzor; 4-markazdan qochma purkagich.



1-rasm. GPS-200 ko‘pik generatorining sxemasi

Ko‘pik hosil qiluvchi qorishma markazdan qochma purkagichga uzatiladi. Qorishmaning tomchilar qobiqda konfuzor orqali tashqaridan kelayotgan havo bilan aralashadi. Bu aralashma metall to‘r kataklaridan o‘tib karraligi 80 ga teng bo‘lgan ko‘pik hosil qiladi va yonayotgan yuzalarga yunaltiriladi.

O‘t o‘chiruvchi asboblar dastlabki o‘t o‘chirish vositasi bo‘lib, yong‘inning boshlang‘ich davrida, uning kuchayib, tarqalib ketmasligi uchun ishlatiladi. GOST 12.2.047-80 «O‘t o‘chirish texnikasi. Atama va qoidalar»da o‘t o‘chiruvchi moddaning turiga qarab quyidagi xillarga bo‘linadi:

1. Suyuqlik vositasidagi (faol yuzali moddalar qo‘shilgan suv yoki turli kimyoviy birikmalarining suvdagi eritmalar); karbonat kislotali (suyultirilgan karbonat dioksidi); kimyoviy-ko‘pikli (kislota va ishqorlarning suvdagi eritmasi); havo-ko‘pikli (ko‘pik hosil qiluvchi moddalarning suvdagi eritmasi bilan siqilgan

karbonat angidrid gazi yoki havoning aralashmasi); xladonli (galloidlangan uglevodorod asosidagi kukunli moddalar – bromli etil, xladon va boshqalar); kukunli (karbonat ikki oksidli soda asosidagi quruq kukunlar); aralashma holidagi (kukunlar va ko‘pik hosil qiluvchilar).

2. O‘t o‘chiruvchi moddaning miqdori va o‘lchamlari bo‘yicha – kam hajmli (hajmi 5 litr, 10 litrli), ko‘chma va hajmi 25 litrdan kam bo‘lmagan statsionar uskunalar.

Karbonat kislotasi o‘t o‘chirish asboblari havo kirmaganda ham yona oladigan moddalardan (paxta tolalaridan) boshqa turli moddalarni o‘chirishda ishlatiladi. SHu bilan birga 100 V. gacha kuchlanish ostida bo‘lgan elektr uskunalarini ham o‘chirishda ishlatish mumkin.

Hozirgi paytda karbonat kislotali o‘t o‘chirish asboblarining OU, OU-2A, OU-5, OU-8, OU-2MM va OU-5MM rusumlari chiqarilayapti.

Kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chirish asboblari qattiq moddalarni hamda maydoni 1 m². gacha bo‘lgan suyuq yonuvchi moddalarni o‘chirishda ishlatiladi. Ular bilan kuchlanish ostidagi uskunalarni o‘chirib bo‘lmaydi.

Havo-ko‘pikli o‘t o‘chirish asboblari ishqorli elementlar va elektr uskunalaridan tashqari turli moddalarni o‘chirishda ishlatiladi.

O‘t o‘chirishning dastlabki vositalari endi boshlanayotgan yong‘inlarni o‘chirish uchun ishlatiladi. Ular binoning ichida yoki kiraverishida, omborlar yonida, qizil ranga bo‘yalgan maxsus taxta shitlariga osib qo‘yiladi. Bu vositalarga o‘t o‘chirish uchun ishlatiladigan asboblar (bolta, belkurak, misrang, changak, chelak), asbestos matosi yoki texnik kigiz, bochkada suv, yashikda qum va o‘t o‘chiruvchi (ko‘pikli, karbonat angidridli va kukunli) asboblar, shu bilan birga o‘t o‘chirishning ichki vodoprovod tizimi ham kiradi. Jumladan, biz tadqiqot o‘tkazgan “Quyi Tegana Quruvchi” XKda o‘t o‘chirishning dastlabki vositalarini 2–rasmdan ko‘rishimiz mumkin.

GOST 12.1.004-85(90) MXSM «YOni xavfsizligi. Umumiyl talablar»ga binoan barcha ishlab chiqarish xonalari va omborlar dastlabki o‘t o‘chirish

vositalari bilan ta'minlanishi kerak. Mexanizatsiyalashgan o't o'chirish vositaliga suv nasoslari va avtomashinalar kiradi. Suv nasoslar (motopompalar) umumiy asosga o'rnatilgan dvigatel va markazdan qochma nasosdan tarkib topgan agregatdir.

Bulardan tashqari, o't o'chiruvchi moddalarni (suv, havo-mexaniq yoki kimyoviy ko'pik) etkazib berish maqsadida yong'in avtomashinalari ishlataladi. Ularga avtotsisternalar, shlang-nasosli avtomobillar, poezdlar va boshqalar kiradi.

O't o'chiruvchi avtomobilarning (avtotsisterna va avtonasoslar) asosiy agregati, markazdan qochma yong'in nasosi bo'lib, u suv yoki boshqa suyuq o't o'chiruvchi aralashmalarini yong'in chiqqan erga etkazib beradi.

Har qanday ob'yektda yong'inni muvaffaqiyatli o'chirish uchun yong'inga qarshi kurashish tadbirlarini oldindan amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Korxonalardagi yong'inlarning harakterli xususiyatlaridan biri shuki, yong'inning boshlanishida harorat tez ko'tariladi va quyuq tutun ajralib chiqadi. Masalan, alanganing o'rtacha tarqalish tezligi to'qimachilik korxonalarda 0,35-0,65 m/min. bo'lsa, chang va momiq yuzalarga to'planib qolgan hollarda 1-2 m/min. ni tashkil etadi. Tajribalarning ko'rsatishicha korxona sexlarida alanga maydonining tarqalish tezligi 8-12 m²/min. ni tashkil etadi.

Buning oqibatida yong'inni boshlang'ich davridayoq o'chirish imkonini bo'lmaydi. Shu bilan birga bu sharoit kishilarni evakuatsiya qilish ishini, o't o'chirish bo'limlarining faoliyatini qiyinlashtiradi. Agar o'tni o'chirish bo'yicha samarali tadbirlar zudlik bilan amalga oshirilmasa, yong'in tezda rivojlanib, kattalashib ketadi.

Bularning hammasi korxonani yong'inga qarshi har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rishga majbur qiladi. Bu tayyorgarlikning asosiy shartlaridan biri yong'inni o'chirish bo'yicha tezkorlik bilan reja ishlab chiqishdir. Buning uchun sharoitni hisobga olgan holda, bo'lishi mumkin bo'lgan eng murakkab yong'in ko'zda tutiladi va uning asosida vositalar va kishilar soni hisoblab chiqiladi.

Tezkorlik bilan tuzilgan reja chizma hamda matndan iborat bo‘ladi. Chizma qismida korxonaning asosiy ishlab chiqarish binosi va unga yondoshgan yordamchi binolar, yo‘llar va suv manbalarining birgalikdagi sxemasi ko‘rsatiladi. Rejada o‘t o‘chirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan barcha suv manbalari, ular bilan bino orasidagi masofalar ko‘rsatilishi va o‘t o‘chirish bo‘limlari o‘z nasoslarini qaysi suv manbaiga o‘rnatishlari ham ko‘rsatilishi kerak. Zarur bo‘lsa, ko‘p qavatli binolarda har bir qavatning rejasi va uning qirqimi ilova qilinadi. Bu reja barcha zaruriy axborotlar bilan ta’minlanishi lozim.

Rejaning matn qismida shu binoning o‘ziga xos xususiyatlari, yong‘in paytida odamlarni evakuatsiya qilish, moddiy boyliklarni saqlab qolish, kelayotgan o‘t o‘chirish bo‘limlarining erkin harakat qilishlari va qutqaruv ishlarini amalga oshirish tadbirlari ko‘rsatiladi. Rejada o‘t o‘chirish shtabiga korxona ma’muriyati vakillarini jalb qilish ko‘zda tutiladi. Bunda yong‘in paytida o‘t o‘chirish shtabiga jalb qilingan har bir rahbar nima qilish aniq va to‘liq yozib chiqiladi.

Korxonaning yong‘in jihatidan xavfsizligi korxona hududida binolar, avtomobil yo‘llari, temir yo‘llarning oqilona joylashtirilishiga, suv rezervuarlari, o‘t o‘chiruvchilar deposining mavjudligi hamda joylashuviga ko‘proq e’tibor beriladi.

Korxonaning bosh rejasida ishlab chiqarish binolari va inshootlarning joylashuvi shamol yo‘nalishining quydastasiga asosan loyihamanadi. Korxona hududi eng yaqin turarjoy dahasiga nisbatan shamolga teskari tomonda joylashtiriladi. Yong‘in jihatidan eng xavfli bino va inshootlar ham korxonaning bosh rejasida shu nuqati nazar asosida, bino hamda inshootlarning guruhanishini hisobga olib, ishlab chiqarishning texnologik jarayoni va yong‘in xavfi belgilaridan kelib chiqqan holda joylashtirilishi lozim.

Korxona hududida bino va inshootlarga o‘t o‘chirish mashinalari kirib keladigan yo‘l ko‘zda tutilgan bo‘lishi kerak. Bino va inshootning eni 18 m. gacha bo‘lganda bu yo‘l binoning bir tomonida, 18 m. dan katta bo‘lganda esa ikala tomonida qurilishi lozim. Qatnov bir tomonlama bo‘lganda yo‘llarning eni kamida

3,75 m., ikki tomonlama bo‘lganda esa kamida 7,5 m. bo‘lishi kerak. Korxona maydonidagi odamlar va mashinalar yuradigan yo‘laklar boshi berk, aylanma yoki aralash bo‘lishi mumkin. Yo‘lning boshi berk bo‘lganda uning oxirida o‘t o‘chiruvchi mashinalar burilishi uchun kamida 10 m. radiusli burilish joylari yoki 12x13 m. o‘lchamli maydonchalar ko‘zda tutilishi lozim.

Yong‘inga qarshi devorlar (brandmauerlar) o‘tga chidamlilik chegarasi kamida 2,5 soat bo‘lgan, binoning qiyinlik bilan yonadigan hamma qismlarini kesib o‘tadigan yaxlit devordir. U binoning tomidan 60 sm. va yon devoridan 30 sm. chiqib turadi.

Yong‘inga qarshi mintaqalar eni kamida 6 m. li yonmaydigan qoplama bo‘laklardan tashkil topgan bo‘lib, ular yonmaydigan tayanchlarga tayanib turadi va binoni butun uzunligi yoki eni bo‘yicha kesib o‘tadi. Mintaqalarning uchlari vertikaliga to‘lqin shaklida ishlanib, binoning tomidan kamida 0,7 m. chiqarib qo‘yiladi. Yong‘inga qarshi mintaqalar ko‘tarib turuvchi qismlarning o‘tga chidamlilik chegarasi 2,5 soatdan kam bo‘lmasligi lozim. Texnologik jarayonning shart-sharoitlariga ko‘ra yong‘inga qarshi devorlarni qurish mumkin bo‘lmasligi hollarda yong‘inga qarshi mintaqalar qo‘llaniladi. Odatda, alanganing bino ichiga kirishining oldini olish uchun yong‘inga qarshi mintaqalarda favvora o‘rnataladi.

Yong‘inga qarshi eshiklar ichki devorlardagi eshik o‘rinlari orqali bir sexdan boshqasiga tarqalishini cheklash uchun quriladi. Tuzilishiga ko‘ra ular tez eriydigan qulfi ishlab ketganida o‘z-o‘zidan suriladigan yoki pastga tushadigan bo‘lishi mumkin. Ushbu eshiklar o‘tga chidamlilik chegarasi 1,2 soatdan kam bo‘lmasligi, qiyinlik bilan yonadigan ashyodan tayyorlanadi.

Odamlarni yong‘in chiqqanda xavfsiz evakuatsiya qilish uchun ishlab chiqarish va yordamchi binolarda maxsus chiqish joylari ko‘zda tutiladi. Evakuatsiya chiqish joylariga olib boruvchi, odamlarning tez va xavfsiz harakatini ta’minlovchi yo‘l, yo‘lak, maydoncha, zina va narvonlar evakuatsiya yo‘llari deb ataladi. Evakuatsiya chiqish joylari shunday hisob bilan qurilishi kerakki, ish o‘rinlaridan to binodan tashqariga chiqish joylarigacha bo‘lgan masofa xavfsiz

bo‘ladigan, bunda odamlar harakatlanadigan yo‘llar kesishmaydigan yoki to‘qnash kelmaydigan bo‘lishi lozim. Biz tadqiqot o‘tkazgan „Quyi Tegana quruvchi”xususiy koroxnasida ham yong‘in chiqqanda odamlarni evakuatsiya qilish uchun ishlab chiqarish va yordamchi binolarda maxsus chiqish joylari ko‘zda tutilmagan. Bundan ko‘rinadiki, jamiyatda agarda yong‘in chiqsa odamlarni evakuatsiya qilish uchun etarlicha sharoit mavjud emas. Lekin, jamiyat hovlisida ishlab chiqarish binolari orasida avtomobil yo‘llari qurilgan. Suu orqali odamlarni evakuatsiya qilish mumkin.

Yong‘in chiqqanda odamlarni muvaffaqiyat bilan evakuatsiya qilinishi uchun har bir xonaning yaxshi ko‘rinib turadigan joyiga evakuatsiya rejasi osib qo‘yilishi, har bir ishchi-xizmatchi bu rejani bilishi kerak. Lekin, shuni alohida ta’kidlash zarurki „Quyi Tegana quruvchi”xususiy koroxnasida ham yong‘in sodir bo‘lganda odamlarni evakuatsiya qilish rejasi osib qo‘yilmagan.

Respublikamizdagi barcha xo‘jalik yurituvchi subektlar qulay va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratib berishga majburdirlar. Zeroki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ham shuni taqozo etmoqda.

Xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlaydigan xodimlarning mehnat unumdorligi ham oshadi. Aynan shu maqsadni ko‘zlab, biz tadqiqot olib borgan „Quyi Tegana quruvchi”xususiy koroxnasi ham o‘z xodimlariga xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, korxonada hayot faoliyati xavfsizligi borasida etarli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, xodimlarning mehnat qilishlari uchun yorug‘lik tizimlari ham zamon talablariga mos keladi. Shuning bilan birga korxonada ishchilarga maxsus sanitariya xizmati ham tashkil etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi paytda keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishda barcha iqtisodiy sohalar rivojlanib bormoqda. Har bir korxonalar maksimal ko‘rsatkichga erishish uchun barcha sohalarga jiddiy e’tibor berishga majbur bo‘lmoqdalar. Bularidan eng asosiy omil bo‘lib asosiy vositalar rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 5-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS "Asosiy vositalar"), "Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil 9-son, 142-modda) asosan ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi.

Asosiy vositalar - bu korxonalar tomonidan xo‘jalik faoliyatini yuritishda uzoq muddat davomida mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlarni kqrtsatish, shuningdek ma’muriy va ijtimoiy –madaniy funksiyalarni bajarish uchun ishlatiladigan moddiy aktivlar.¹⁰

21-son BHMSga muvofiq asosiy vositalar 0100 «Asosiy vositalarni hisobga oluvchischoyotlar» va kontraktiv bo‘lgan 0200 «Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar» tizimida yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalar korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarini bajarishda yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yohud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir.

Asosiy vositalar korxonaga bir necha yo‘llar bilan kirim qilinadi:

- Pul mablag‘lari evaziga
- Boshqa subektlardan hadya sifatida
- Kredit hisobiga

¹⁰ BHMS № 5, 3a-band

- Qurilish yo‘li bilan
- O‘z aksiyalariga almashtirish orqali
- Boshqa aktivlarga almashish bilan.

Asosiy vositalarni sotib olingandan so‘ng uni saqlash va ishlatish bilan bog‘liq bir qator xarajatlar vujudga kela boshlaydi. Asosiy vositalarni foydalanish imkoniyatlarini va xarid qilib olinganida aniqlab olingen foydalanish davrini ta’minalash, minimal darajadagi saqlab turish va ta’mirlashlar bo‘yicha xarajatlarni amalga oshirib turishni taqozo qiladi. Bu xarajatlar foydalanish muddatini xarid qilinganida belgilanganidan yuqoriroq darajada uzaytira olmaydi, ular joriy hisoblanadi va paydo bo‘lgan davr xarajatlari moddasiga kiritiladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, asosiy vositalar halokat, sovuq-qonlik, bilgan holda suiste’mol qilish, o‘g‘rilik natijasida paydo bo‘lgan harajatlar zararlarga olib boriladi. Masalan, agar dastgohni o‘rnatish jarayonida ayrim muhim qismlarining sinishi yuz bersa, u holda ta’mirlash to‘lovleri xarajatlar moddasiga yoziladi. Ta’mirlashdan so‘ng bu inventar avval ega bo‘lgan qiymatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Bulardan tashqari, baxtsiz hodisa natijasida shikastlangan, sug‘urta qilingan mulkni qayta tiklash xarajatlari zararlar moddasiga kiritiladi .Bunday shikastlanishlarni tiklash, tabiiyki, inventarni foydalanish muddatini baxtsiz hodisadan oldingi darajadan yuqoriroq darajada uzaytirmaydi.Agarda qayta ta’mirlashdan so‘ng uskunaning xizmat yoki foydalanish muddati uzaysa, xarajatlar foydali faoliyat muddatini uzayishining butun davriga kapitallash-tiriladi.

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning asosiy vazifasi uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlar qiymatini taxmin qilinayotgan xizmat muddati davomida qo‘llaniladigan tizimli va ratsional yozuvlar asosida taqsimlashdir. Aktivlarning xizmat muddatini cheklanganligining asosiy sabablari ularning jismoniy va ma’naviy eskirishidir. Asosiy vositalar

ko‘pincha jismoniy eskirishga ulgurmasdan, ma’naviy eskirib qoladi. Buxgalterlar odatda jismoniy va ma’naviy eskirish o‘rtasida farqni ajratmaydilar, chunki ularni asosiy vositalarning foydalanish muddati qiziqtiradi.

Asosiy vositalarni chiqib ketishi u yoki bu ob’ektni ishlashini to‘xtatilishi va uni harakatdagi asosiy vositalar tarkibidan chiqarib yuborilishini bildiradi. Asosiy vositalarni chiqib ketishiga quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin:

- tugatish;
- sotish;
- almashtirish;
- qaytarib olmaslik sharti bilan berish;
- pay badali ko‘rinishida berish.

Asosiy vositalarni qayta baholash asosiy vositalar ob’ektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqtiga vaqt bilan aniqlashtirishdir.

Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

«QUYI TEGANA QURUVCHI» xususiy korxonasi misolida «Asosiy vositalarning hisobi va auditini» mavzusini atroflicha o‘rganib chiqdim.

Hozirgi paytda keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qatiyat bilan davom ettirishda barcha iqtisodiy sohalar rivojlanib bormoqda. Har bir korxonalar maksimal ko‘rsatkichga erishish uchun barcha sohalarga jiddiy e’tibor berishga majbur bo‘lmoqdalar. Bularidan eng asosiy omil bo‘lib asosiy vositalar rol o‘ynamoqda

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalar korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarini bajarishda yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yohud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir.

Ushbu bituruv malakaviy ishimni yozish davomida biz o‘z tadqiqotimizni Quyi tegana quruvchi” XK asosiy vositalarning hisobi v audit yuzasidan olib bordik.

Hisob jarayonida biz „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasiga asosiy vositalar bilan to’liq taminlanganligi xisobini yaxshi yuritilganligi bilan bir qatorda ayrim kamchilliklarga ham duch keldim. Bu kamchilliklar sifatida asosiy vositalarning qayta baholanish mas ravishda yangi 01.01.2017 yildagi indekislar bo'yicha baholanmaganligini korsatish mumkin. Shu kamchilliklarni bartaraf qilish maqsadida men asosiy asosiy vositalarni yangi indeklar bo'yicha qayta baholadim va korxonaga tadbiqu etdim.

Audit jarayonida auditor “Quyi Tegana Quruvchi” XK da auditorlik shartnomasining shartlaridan kelib chiqqan holda auditorlik tekshiruvi rejasini tuzishdan boshlaydi. Auditorlik rejası tuzilgandan so‘ng audit dasturi tuziladi. Auditorlik rejası va dasturida bajariladigan tadbirlarni amalga oshiruvchi auditorlar o‘ziga biriktirilgan tadbirlar yuzasidan audit qilishning taxminiy ketma-ketligini belgilab oladi va shunga asosan auditorlik tekshiruvini ma’lum tartibda amalga oshiradi.

Auditorlik tekshiruvini o’tqazishning 3-bosqichi bo‘lib uning natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish deganda shartnomada ko‘rsatilgan ob’ektlar bo'yicha auditorlik tekshiruvida aniqlangan dalilu-isbotlarni rasmiy hujjatlarda aks ettirish tushuniladi. Ushbu rasmiy hujjatlar bo‘lib auditorning hisoboti va auditorlik xulosasi hisoblanadi.

Malakaviy ishning bajarish natijasida asosiy vositalarning hisob audit ob’ekti sifatidagi tasnifi va tavsifi, auditining metodologik, nazariy asoslari, asosiy vositalar harakatining audit, eskirish summalarining to‘g‘ri hisoblanganligi, asosiy

vositalarga keyingi sarflarning hisob va hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirilganligini yana bir bor o‘rganib chiqdim. Shuningdek, ishda izlanishlar natijasi o‘laroq, asosiy vositalar auditiga doir turli xil jadvallar tuzildi.

Korxonaning asosiy vositalari kundan kunga ko‘payib borishi natijasida hisobotning murakkablik darajasi ortib bormoqda. Demak bu murakkabliklar bevosita buxgalteriya ish faoliyatini murakkablashushuviga olib keladi. Yuqoridagilarni hisobga olib asosiy vositalar hisobi va auditini yanada yaxshilash maqsadida quyidagilarni tavsiya etgan bo‘lar edik:

- avtomatlashtirishgan (1-S) yangi adenes programmasidan foydalanish.
- Tashabbus tarzidagi auditorlik auditolik tekshuruvini yo’lga qo’yish.
- „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasini hisob siyosatiga uzgartirish va kushimchalar kiritish, ya’ni aynan asosiy vositalarga doir buxgalteriya yozuvlarini 21-son BXMSga muvofik kiritish.
- „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasida asosiy vositalarni krimi va chiqinini o’z vaqtida buxgalteriya schyotlarida aks ettirish.
- „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasi Asosiy vositalarini yangi indekslar bo‘yicha qayta baholanishiga etibor qaratish.
- „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasi Asosiy vositalar chiqib ketishi va tugatilishini to‘g‘ri hujatlashtirishiga etibor qaratish.
- Asosiy vositalar auditining metodologik asoslarini, me’yoriy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va asosiy vositalar audit uchun mo‘ljallangan audit rejasi va dasturini ishlab chiqish;
- „Quyi Tegana Quruvchi” xusuiy korxonasida asosiy vositalarni auditorlik hisobotini tuzish va hisob malumotlari bilan taqqoslastirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.—T.: “O'zbekiston”, 2010.
2. “Buxgalteriya hisobi to'g'risida” qonun. 2016 yil 13-aprel
3. “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonun - 2000-yil;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida” gi Qarori. 1999 yil 5 fevral. 54-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev. Sh. M ning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilgamo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasi.
6. Urazov K.B. Asosiy vositalarga doir daromadlar: hisob siyosatida ochilishi lozim bo'lgan jihatlar xususida. Soliq to'lovchining jurnali, 2000, № 6.
8. BHMS “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”. O'zR. AV tomonidan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 475.
9. 1-son BHMS “ Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”. O'zR. AV tomoni-dan 1998 yil 14 avgustda ro'yxatga olingan, № 474.
10. 5-son BHMS “Asosiy vositalar”. O'zR. AV tomonidan 2004 yil 20 yanvarda ro'yxatga olingan, № 1299.
11. 6-son BHMS “Lizing hisobi”. O'zR. AV tomonidan 1998 yil 16 oktyabrdan ro'yxatga olingan, № 503.
12. 19-son BHMS “Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish”. O'zR. AV tomonidan 1999 yil 2 noyabrdan ro'yxatga olingan, № 833.
13. 21-son BHMS “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi”.
14. Auditorlik milliy standartlari; AFMS-3 AFMS-70
15. Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy hisob. T.: “Moliya”, 2002.
16. Musaev H.N. ma'ruzalaridan bevosita foydalanildi.

17. Umarova M., Eshboev U., Axmadjonov Y. Buxgalteriya hisobi, T.,Mehnat, 1999.
18. Urozov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. T.: “O‘qituvchi”, 2004.
19. Urazov K.B. Asosiy vositalar: hisob siyosati. Soliq to‘lovchining jurnali. 1999, №11.
20. Urazov K.B. Asosiy vositalarga doir xarajatlar. Soliq to‘lovchining jurnali, 1999, № 12.
21. Prof. Musayev. H. N “Audit” darslik - Toshkent Moliya - 2003;
22. Prof. Pardayev. M.Q va boshqalar “Moliyaviy-boshqaruv tahlili” - 2012;
23. Prof. Do’smurodov. R.D “Audit asoslari” - 2008.
21. Urazov K.B. Asosiy vositalarga doir daromadlar: hisob siyosatida ochilishi lozim bo‘lgan jihatlar xususida. Soliq to‘lovchining jurnali, 2000, № 6.
22. G‘ulomova F.G‘. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. T.: “NORMA”, 20017.
23. Yusupova M.B, Soliev B.K. Moliyaviy hisob. Andijon-2006.

Internet saytlari

1. <http://www.google.co.uz>.
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.mf.uz>
4. <http://www.norma.uz>
5. www.ziyonet.uz
6. www.moodle.sies.uz
7. www.tfi.uz

ILOVALAR